

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI PEDAGOG  
KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING  
MALAKASINI OSHIRISH MINTAQAVIY MARKAZI**

**KORRUPSIYAGA QARSHI KURASH –  
FUQAROLIK JAMIYATINI  
RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR  
SHARTI**

**2022**

**oyev I.H.**

**katta o‘qituvchi**

**Qodirov D.H.**

**katta o‘qituvchi**



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI PEDAGOG  
KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI  
OSHIRISH MINTAQAVIY MARKAZI**

**“KORRUPSIYAGA QARSHI KURASH – FUQAROLIK  
JAMIYATINI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR SHARTI”**

**MODULI BO‘YICHA**

**O‘QUV-USLUBIY MAJMUA**

**Fuqarolik jamiyati**

Modulning o‘quv-uslubiy majmuasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2020 yil 7 dekabrdagi 648-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan o‘quv dasturi va o‘quv rejasiga muvofiq ishlab chiqilgan.

**Tuzuvchilar:** **I.H.Shoyev** katta o‘qituvchi  
**D.H.Qodirov** katta o‘qituvchi.

**Taqrizchilar:** **R.G‘.Jumaev** siyosatshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

**E.X.Zoirov** falasafa fanlari nomzodi, dotsent.

**O‘quv -uslubiy majmua Buxoro davlat universiteti Ilmiy Kengashining qarori bilan nashrga tavsiya qilingan (2021 yil “30” dekbardagi 5-sonli bayonnomma)**

**MUNDARIJA**

<b>I. IShChI DASTUR .....</b>	<b>5</b>
<b>II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL</b>	
<b>TA’LIM METODLARI .....</b>	<b>12</b>
<b>III. NAZARIY MATERIALLAR .....</b>	<b>16</b>
<b>IV. AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI .....</b>	<b>67</b>
<b>V. GLOSSARIY .....</b>	<b>72</b>
<b>VI. ADABIYOTLAR RO‘YXATI .....</b>	<b>81</b>

## I. IShChI DASTUR

### Kirish

**“Korrupsiyaga qarshi kurash – fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning ustuvor sharti”** moduli hozirgi kunda jamiyatni turli yo‘llar bilan iskanjaga oladigan dahshatli illat korrupsiyaning demokratiya va huquq ustuvorligi asoslariga putur etkazib, inson huquqlari buzilishiga olib kelishi, bozorlar faoliyatiga to‘sinqinlik qilishi, hayot sifatini yomonlashtirishi va odamlar xavfsizligiga tahdid soladigan uyushgan jinoyatchilik, terrorizm va boshqa hodisalarning ildiz otib, gullashi uchun sharoit yaratib berishi hamda bu illatni bartaraf etish bo‘yicha jahon hamjamiyati tomonidan bir qator samarali ishlar amalga oshirilayotgan ishlar kabi masalalarni qamrab oladi.

#### **Modulning maqsadi va vazifalari**

**“Korrupsiyaga qarshi kurash – fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning ustuvor sharti” modulining maqsadi:** hozirgi kunda aholi o‘rtasida korrupsiyaga qarshi kurashning roli va ahamiyati, korrupsiyaga qarshi kurash metodlarini joriy qilish va rivojlantirish, qonunlarni loyihalashtirish, ishlab chiqish, O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurash borasida olib borilayotgan ishlar haqida axborot berish bo‘yicha ko‘nikma va malakalarini tarkib toptirish.

#### **“Korrupsiyaga qarshi kurash – fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning ustuvor sharti” modulining vazifalari:**

- korrupsiyaga qarshi kurash borasidagi qonunlarni o‘rganish, ushbu illatning oldini olish masalasiga ilmiy yondashish, ta’lim-tarbiya jarayonida unga qarshi kurashish ahamiyatini o‘quvchi va tinglovchilarga tushuntirish hamda shakllantirish;

- korrupsiyaga qarshi kurashish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish tizimlari bo‘yicha ko‘nikma va malakalarini shakllantirish;

- korrupsiyani qarshi kurashishning xorij tajribalarini o‘rganish, joriy qilish va hozirgi kunda samarali kurashish usullari va qonunlarni amaliyatda tadbiq etishga o‘rgatish.

#### **Modul bo‘yicha tinglovchilarining bilimi, ko‘nikma va malakalariga**

## qo‘yiladigan talablar

**“Korrupsiyaga qarshi kurash – fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning ustuvor sharti” modulini** o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida tinglovchilar:

- korrupsiya va unga qarshi kurash tushunchasi. Korrupsiyaga qarshi kurash borasida xalqaro huquqiy hujjatlarni bilishi kerak;
- 2008 yil iyul oyida O‘zbekiston Respublikasini BMTning korrupsiyaga qarshi kurash konvensiyasiga qo‘shilishi. O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi qonuni.(2017 yil fevral) haqida ma’lumotga ega bo‘lishi;
- korrupsiya fuqarolik jamiyati rivojlanishiga zid bo‘lgan salbiy voqiylilik ekanligi va unga qarshi kurash ishlarida fuqarolar hamda fuqarolik jamiyati institutlarining ishtiroki to‘g‘risida xabardor bo‘lishi zarur;
- jahonda korrupsiyaga qarshi kurashish qanday amalga oshirilishi to‘g‘risida bilimga ega bo‘lishi lozim.

### **Modulning o‘quv rejadagi boshqa modullar bilan bog‘liqligi va uzviyligi**

Fan mazmuni o‘quv rejadagi “Harakatlar strategiyasi - O‘zbekiston Milliy taraqqiyoti yangi bosqichining asosi”, “Fuqarolik jamiyati”, “Ilmiy va innovasion faoliyatni rivojlantirish” o‘quv moduli bilan uzviy bog‘langan holda pedagog kadrlarning umumiy tayyorgarlik darajasini oshirishga xizmat qiladi.

### **Modulning oliy ta’limdagi o‘rni**

Modulni o‘zlashtirish orqali tinglovchilar “Korrupsiyaga qarshi kurash – fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning ustuvor sharti” modulining profiliga mos zaruriy bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtiradilar.

### **Modul bo‘yicha soatlar taqsimoti:**

		<b>Tinglovchining o‘quv yuklamasi, soat</b>	
<b>Modul mavzulari</b>		<b>Hamma si</b>	<b>Auditoriya o‘quv yuklamasi</b>
		ja mi	jumladan

				Nazariy mashg'ulot	Amaliy mashg'ulot
1.	Korrupsiya va unga qarshi kurash tushunchasi.	4	4	2	2
2.	Korrupsiyaga qarshi kurash borasida xalqaro huquqiy hujjatlar	4	4	2	2
3.	2008 yil iyul oyida O‘zbekiston Respublikasini BMTning Korrupsiyaga qarshi kurash konvensiyasiga qo‘silishi.	4	4	2	2
4.	O‘zbekiston Respublikasi “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonuni va qarorda belgilangan vazifalar	4	4	2	2
5.	Korrupsiyaga qarshi kurash sub’ektlari va idoralararo komissiyaning asosiy vazifalari.	4	4	2	2
6.	Korrupsiyaga qarshi kurash ishlarida fuqarolar hamda fuqarolik jamiyati institutlarining faolligini oshirish mexanizmlari.	4	4	2	
7.	“O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora – tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonida belgilangan vazifalari (27.05.2019). O‘zbekiston milliy taraqqiyotining yangi bosqichida korrupsiyaga qarshi kurashdagi natijalari va ularning ahamiyati.	4	4	2	2
	<b>Jami:</b>	<b>26</b>	<b>26</b>	<b>14</b>	<b>12</b>

## NAZARIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

### 1-Mavzu: Korrupsiya va unga qarshi kurash tushunchasi.

**Reja:**

1. Korrupsiya tushunchasi va atamasi.
2. Korrupsiyaning tarixiy ildizlari va kelib chiqishi.
3. Korrupsiyaga qarshi kurash borasida O‘zbekiston Respublikasi davlat

siyosatining asosiy yo‘nalishlari.

## **2-Mavzu: Korrupsiyaga qarshi kurash borasida xalqaro huquqiy hujjatlar.**

### **Reja:**

1. Korrupsiyaga qarshi kurashning huquqiy asoslari.
2. Korrupsiyaga qarshi qaratilgan yuqori samarali chora tadbirlarni qabul qilish va mustahkamlash.
3. Korrupsiyaga qarshi kurashda halqaro hamkorlikning ahamiyati va o‘rni.

## **3-Mavzu: 2008 yil iyul oyida O‘zbekiston Respublikasini BMTning Korrupsiyaga qarshi kurash konvensiyasiga qo‘shilishi.**

### **Reja:**

1. BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiya mazmuni va mohiyati.
2. BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasidagi asosiy vazifalar.
3. BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasiga (Nyu-York, 2003 yil 31 oktabr) O‘zbekiston Respublikasining qo‘shilishi to‘g‘risida qonunning ahamiyati.

## **4-Mavzu: O‘zbekiston Respublikasi “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonuni va qarorda belgilangan vazifalar**

### **Reja:**

1. Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi qonun hujjatlari.
2. Korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy prinsiplari.
3. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiruvchi davlat organlari.

## **5-Mavzu: Korrupsiyaga qarshi kurash sub’ektlari va idoralararo komissiyaning asosiy vazifalari.**

### **Reja:**

1. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha idoralararo komissiyalar.
2. Idoralararo komissiyaning asosiy vazifalari.

3. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiruvchi davlat organlari.

**6-Mavzu: Korrupsiyaga qarshi kurash ishlarida fuqarolar hamda fuqarolik jamiyati institutlarining faolligini oshirish mexanizmlari.**

**Reja:**

1. Fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlarining, nodavlat notijorat tashkilotlarining va fuqarolarning korrupsiyaga qarshi kurashishda ishtirok etishi.
2. Aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish.
3. Ta’lim muassasalarida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi huquqiy ta’lim va tarbiyani amalga oshirishning ahamiyati.

**7-Mavzu: “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora – tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonida belgilangan vazifalari (27.05.2019). O‘zbekiston milliy taraqqiyotining yangi bosqichida korrupsiyaga qarshi kurashdagi natijalari va ularning ahamiyati.**

**Reja:**

1. Aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish.
2. Davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida korrupsiyaning oldini olish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish.
3. Korrupsiyaga oid huquqbazarliklarni o‘z vaqtida aniqlash, ularga chek qo‘yish, imkoniyat yaratuvchi sabablar, shart-sharoitlar va oqibatlarini bartaraf etish, korrupsiyaga oid huquqbazarliklarni sodir etganlik uchun javobgarlikning muqarrarligi prinsipini ta’minlash.

**AMALIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI**

**1-Mavzu: Korrupsiya va unga qarshi kurash tushunchasi.**

**Reja:**

1. Korrupsiya tushunchasi va atamasi.
2. Korrupsiyaning tarixiy ildizlari va kelib chiqishi.
3. Korrupsiyaga qarshi kurash borasida O‘zbekiston Respublikasi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari.

**2-Mavzu: Korrupsiyaga qarshi kurash borasida xalqaro huquqiy hujjatlar.****Reja:**

1. Korrupsiyaga qarshi kurashning huquqiy asoslari.
2. Korrupsiyaga qarshi qaratilgan yuqori samarali chora tadbirlarni qabul qilish va mustahkamlash.
3. Korrupsiyaga qarshi kurashda halqaro hamkorlikning ahamiyati va o‘rnii.

**3-Mavzu: 2008 yil iyul oyida O‘zbekiston Respublikasini BMTning  
Korrupsiyaga qarshi kurash konvensiyasiga qo‘shilishi.****Reja:**

1. BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiya mazmuni va mohiyati.
2. Korrupsiyaning turlari va shakllari.
3. Korrupsiyaga qarshi kurashish borasida nazorat tizimlari hamda O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi mansabдор shaxslarning korrupsiyaviy jinoyatlar uchun javobgarligi.

**3-Mavzu: O‘zbekiston Respublikasi “Korrupsiyaga qarshi kurashish  
to‘g‘risida”gi qonuni va qarorda belgilangan vazifalar.****Reja:**

1. Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi qonun hujjatlari.
2. Korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy prinsiplari.
3. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiruvchi davlat organlari.

#### **4-Mavzu: Korrupsiyaga qarshi kurash sub’ektlari va idoralararo komissiyaning asosiy vazifalari.**

**Reja:**

1. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha idoralararo komissiyalar.
2. Idoralararo komissiyaning asosiy vazifalari.
3. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiruvchi davlat organlari.

#### **5-Mavzu: Korrupsiyaga qarshi kurash ishlarida fuqarolar hamda fuqarolik jamiyati institutlarining faolligini oshirish mexanizmlari.**

**Reja:**

1. O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashning xalqaro va milliy huquqiy asoslari
2. Korrupsiyaga qarshi kurash ishlarida fuqarolar hamda fuqarolik jamiyati institutlarining o‘rni va roli.
3. Transparency International Xalqaro nodavlat tashkilotining «Korrupsiyani qabul qilish indeksi”da O‘zbekiston o‘rnini yaxshilash masalalari.

#### **6-Mavzu: “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora – tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonida belgilangan vazifalari (27.05.2019). O‘zbekiston milliy taraqqiyotining yangi bosqichida korrupsiyaga qarshi kurashdagi natijalari va ularning ahamiyati.**

**Reja:**

1. Korrupsiyaning xavf-xatarlarini tahlil qilish asosida, aholining keng qatlamlarini xabardor qilish va ong-bilimlarini oshirishda maqsadli tadbirlarni amalga oshirish.
2. Yoshlarda korrupsiyaga qarshi kurashish faol dunyoqarash va mustahkam fuqarolik nuqtai nazarini shakllantiradigan chora-tadbirlarni amalga oshirish.
3. Korrupsiya bilan bog‘liq jinoyatlar haqida xabar bergan shaxslarni himoya qilishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish.

## II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL

### TA'LIM METODLARI

#### AQLIY XUJUM METODI

**Aqliy xujum** - g‘oyalarni generatsiya (ishlab chiqish) qilish metodidir. «Aqliy xujum» metodi biror muammoni echishda talabalar tomonidan bildi - rilgan erkin fikr va mulohazalarni to‘plab, ular orqali ma’lum bir echimga kelinadigan eng samarali metoddir. Aqliy xujum metodining yozma va og‘zaki shakllari mavjud. Og‘zaki shaklida o‘qituvchi tomonidan berilgan savolga ta -labalarning har biri o‘z fikrini og‘zaki bildiradi. Talabalar o‘z javoblarini aniq va qisqa tarzda bayon etadilar. Yozma shaklida esa berilgan savolga talaba - lar o‘z javoblarini qog‘oz kartochkalarga qisqa va barchaga ko‘rinarli tarzda yozadilar. Javoblar doskaga (magnitlar yordamida) yoki «pinbord» doskasiga (ignalalar yordamida) mahkamlanadi. «Aqliy xujum» metodining yozma shaklida javoblarni ma’lum belgilar bo‘yicha guruhlab chiqish imkoniyati mavjuddir. Ushbu metod to‘g‘ri va ijobjiy qo‘llanilganda shaxsni erkin, ijodiy va no - standart fikrlashga o‘rgatadi.

Aqliy xujum metodidan foydalanylarda talabalarning barchasini jalb etish imkoniyati bo‘ladi, shu jumladan talabalarda muloqot qilish va munozara olib borish madaniyati shakllanadi. Talabalar o‘z fikrini faqat og‘zaki emas, balki yozma ravishda bayon etish mahorati, mantiqiy va tizimli fikr yuritish ko‘nikmasi rivojlanadi. Bildirilgan fikrlar baholanmasligi talabalarda turli g‘oyalarni shakllanishiga olib keladi. Bu metod talabalarda ijodiy tafakkurni rivojlantirish uchun xizmat qiladi.

**Vazifasi.** “Aqliy xujum” qiyin vaziyatlardan qutulish choralarini topishga, muammoni ko‘rish chegarasini kengaytirishga, fikrlash bir xilli - ligini yo‘qotishga va keng doirada tafakkurlashga imkon beradi. Eng asosiysi, muammoni echish jarayonida kurashish muhitidan ijodiy hamkorlik kayfiyatiga o‘tiladi va guruh yanada jipslashadi.

**Ob’ekti.** Qo‘llanish maqsadiga ko‘ra bu metod universal hisoblanib tadqiqotchilikda (yangi muammoni echishga imkon yaratadi), o‘qitish jarayonida (o‘quv materiallarini tezkor o‘zlashtirishga qaratiladi), rivojlantirishda (o‘z-o‘zini

bir muncha samarali boshqarish asosida faol fikrlashni shakllanti - radi) asqotadi.

**Qo'llanish usuli.** “Aqliy xujum” ishtirokchilari oldiga qo‘yilgan muammo bo‘yicha xar qanday muloxaza va takliflarni bildirishlari mumkin. Aytilgan fikrlar yozib borildi va ularning mualliflari o‘z fikrlarini qay - tadan xotirasida tiklash imkoniyatiga ega bo‘ldi. Metod samarasi fikrlar xilma-xilligi bilan tavsiflandi va xujum davomida ular tanqid qilin - maydi, qaytadan ifodalanmaydi. Aqliy xujum tugagach, muhimlik jixatiga ko‘ra eng yaxshi takliflar generatsiyalanadi va muammoni echish uchun zarurlari tanlanadi.

«Aqliy xujum» metodi o‘qituvchi tomonidan qo‘yilgan maqsadga qarab amalga oshiriladi:

1. Talabalarning boshlang‘ich bilimlarini aniqlash maqsad qilib qo‘yilganda, bu metod darsning mavzuga kirish qismida amalga oshiriladi.
2. Mavzuni takrorlash yoki bir mavzuni keyingi mavzu bilan bog‘lash maqsad qilib qo‘yilganda - yangi mavzuga o‘tish qismida amalga oshiriladi.
3. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash maqsad qilib qo‘yilganda - mavzudan so‘ng, darsning mustahkamlash qismida amalga oshiriladi.


#### **«Aqliy xujum» metodining afzallik tomonlari:**

1. natijalar baholanmasligi talabalarni turli fikr-g‘oyalarning shakl - lanishiga olib keladi;
2. talabalarning barchasi ishtirok etadi;
3. fikr-g‘oyalari vizuallashtirilib boriladi;
4. talabalarning boshlang‘ich bilimlarini tekshirib ko‘rish imkoniyati mavjud;
5. talabalarda mavzuga qiziqish uyg‘otish mumkin.

#### **«Aqliy xujum» metodining kamchilik tomonlari:**

- o‘qituvchi tomonidan savolni to‘g‘ri qo‘ya olmaslik;
- o‘qituvchidan yuqori darajada eshitish qobiliyatining talab etilishi.

### «Aqliy xujum» metodining tarkibiy tuzilmasi



#### «Aqliy xujum» metodining bosqichlari:


1. Talabalarga savol tashlanadi va ularga shu savol bo'yicha o'z javoblarini (fikr, mulohaza) bildirishlarini so'raladi;
2. Talabalar savol bo'yicha o'z fikr-mulohazalarini bildirishadi;
3. Talabalarning fikr-g'oyalari (magnitafonga, videotasmaga, rangli qog'ozlarga yoki doskaga) to'planadi;
4. Fikr-g'oyalari ma'lum belgilari bo'yicha guruhlanadi;
5. Yuqorida qo'yilgan savolga aniq va to'g'ri javob tanlab olinadi.

#### «Aqliy xujum» metodini qo'llashdagi asosiy qoidalar:

- a) Bildirilgan fikr-g'oyalari muhokama qilinmaydi va baholanmaydi.
- b) Bildirilgan har qanday fikr-g'oyalari, ular hatto to'g'ri bo'lmasa ham inobatga olinadi.
- v) Bildirilgan fikr-g'oyalarni to'ldirish va yanada kengaytirish mumkin.

## Mavzu bo‘yicha asosiy tushuncha va iboralar

Zamonaviy ta’lim vositasi tushunchasi , ta’lim vositasi turlari, ta’lim vositasini qo‘llash usullari



## Guruxlarda ish olib borish qoidalari

- ✓ O‘zaro hurmat va iltifot ko‘rsatgan xolda har kim o‘z do‘sstlarini tinglay olishi kerak;
- ✓ Berilgan topshiriqga nisbatan har kim aktiv, o‘zaro hamkorlikda va ma’suliyathi yondashishi kerak;
- ✓ Zarur paytda g‘ar kim yordam so‘rashi kerak;
- ✓ So‘ralgan paytda har kim yordam ko‘rsatishi kerak;
- ✓ Gurux ish natijalari baholanayotganda hamma qatnashishi kerak;
- ✓ Har kim aniq tushunishi kerakki:
- ✓ O‘zgalarga yordam berib, o‘zimiz o‘rganamiz!
- ✓ Biz bir qayiqda suzayapmiz: yo birga ko‘zlagan manzilga yetamiz, yoki birga cho‘kamiz!

### III. NAZARIY MATERIALLAR

#### **1-Mavzu: Korrupsiya va unga qarshi kurash tushunchasi.**

##### **Reja:**

1. Korrupsiya tushunchasi va atamasi.
2. Korrupsiyaning tarixiy ildizlari va kelib chiqishi.
3. Korrupsiyaga qarshi kurash borasida O‘zbekiston Respublikasi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari.

Korrupsiya — bu jamiyatni turli yo‘llar bilan iskanjaga oladigan dahshatli illatdir. Mazkur illat demokratiya va huquq ustuvorligi asoslariga putur yetkazadi, inson huquqlari buzilishiga olib keladi, bozorlar faoliyatiga to‘sinqinlik qiladi, hayot sifatini yomonlashtiradi va odamlar xavfsizligiga tahdid soladigan uyushgan jinoyatchilik, terrorizm va boshqa hodisalar ildiz otib, gullashi uchun sharoit yaratib beradi.

Ilmiy adabiyotlarda unga quyidagicha ta’rif beriladi: ”Korrupsiya—shaxsning o‘z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini ko‘zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek, bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish”.

To‘g‘ri, hayotda turli holatlar va harakatlarga duch kelamiz. Ba’zida ko‘z o‘ngimizda qonunlar buziladi, inson huquqi, qadr-qimmati poymol etiladi. Bunday vaziyatlarda chorasizlikdan odamning boshi gangib qoladi. Lekin, unutmaylik, xalqimizda “Kasalni davolagandan ko‘ra uning oldini olgan afzaldir” degan naql mavjud. Jamiyatimizdagi har qanday jarayonga loqayd munosabatda bo‘lmaslik barchamizning ustuvor burchimizdir.

Korrupsiyaning har qanday ko‘rinishlariga qarshi kurashishni biz, eng avvalo, o‘zimizdan boshlashimiz darkor. Buning uchun esa shaxsning huquqiy ong va huquqiy madaniyati yetarli darajada shakllangan bo‘lmog‘i maqsadga muvofiqidir.

Ta’kidlab o‘tish o‘rinliki, ushbu zararli hodisa katta va kichik, badavlat va kambag‘al bo‘lishidan qat’iy nazar, barcha mamlakatlarda uchraydi. Ushbu zararli

illatni bartaraf etish bo‘yicha jahon hamjamiyati tomonidan bir qator samarali ishlar amalga oshirilayotgan bo‘lsada, hanuzgacha u bartaraf etilmayapti.

Biz quyida korrupsiyaning tarixiy ildizlariga va unga qarshi kurashish xususida fikr yuritmoqchimiz.

Korrupsiya (lot. Corrumper — buzmoq) termini odatda mansabдор shaxslar tomonidan unga berilgan mansab vakolatlari va huquqlardan o‘zlarining shaxsiy manfaatlarini ko‘zlab qonunchilik va ahloq qoidalariga zid ravishda foydalanishini anglatadi.

Ko‘p hollarda bu atama siyosiy elitadagi byurokratik apparatga qarata ishlatiladi. Korrupsiya ko‘plab davlatlarning jinoyat va ma’muriy qonunchiligi bilan huquqqa qarshi harakat sifatida ta’qib qilinadi.

Korrupsiyani bir nechta asosiy turlarga ajratish mumkin:

1) sub’ektlarning maqomiga ko‘ra:

- a) hokimiyat organlaridagi korrupsiya;
- b) xususiy sektordagi korrupsiya;
- v) siyosatdagi korrupsiya yoki siyosiy korrupsiya;

2) darajasiga ko‘ra:

- a) quyi darajadagi korrupsiya;
- b) yuqori darajadagi korrupsiya;
- v) vertikal korrupsiya;

3) ijtimoiy xavflilik darajasiga ko‘ra:

- a) korrupsiya-qilmish;
- b) korrupsiya-jinoyat.

Makroiqtisodiy va siyosiy-iqtisodiy tadqiqotlar, korrupsiya — davlatlarning iqtisodiy o‘sishi va rivojlanishiga ulkan to‘siq ekanligini ko‘rsatdi. Korrupsiyaning tarixiy o‘zaklari juda juda qadimga borib taqalib, bu hol qabilada ma’lum mavqega ega bo‘lish uchun qabila sardorlariga sovg‘alar berish odatidan kelib chiqqan deb taxmin qilinadi. O’sha davrlarda bu normal holat sifatida qabul qilingan. Biroq davlat apparatining murakkablashuvi va markaziylashuvi korrupsiyaning davlat rivojlanishiga katta to‘siq ekanligini ko‘rsatdi. Korrupsiyaga qarshi kurashgan

birinchi davlat sifatida qadimgi Shumer davlati tan olinadi. Qadimgi davlatlarni ayniqsa huquqni muhofaza qiluvchi organlarning poraxo‘rligi qattiq tashvishga solganligi bizgacha saqlanib qolgan manbalardan ma’lum. Chunki bu holat davlatning obro‘siga juda qattiq putur yetkazardi. Dunyoning yetakchi dinlarida ham birinchi navbatda huquqni muhofaza qiluvchi organlarning poraxo‘rligi qattiq qoralanadi. Jumladan, Injilda “Sovg‘alarni qabul qilma, chunki sovg‘a ko‘rni ko‘radigan qiladi va haqiqatni o‘zgartiradi” deyilgan bo‘lsa, Qu’roni Karimda “Boshqalarning mulkini nohaq yo‘l bilan olmangiz va boshqalarga tegishli bo‘lgan narsalarni olish uchun o‘z mulkingizdan hokimlaringizga pora qilib uzatmangizlar” deyilgan.

XVIII asrning ikkinchi yarmiga kelib jamiyat davlat boshqaruvi apparatining ish sifatiga toboro ko‘proq ta’sir ko‘rsata boshladi. Bu o‘sha davrda qabul qilingan bir qator qonun hujjatlarida o‘z aksini topgan. Jumladan, 1787 yilda qabul qilingan AQSh Konstitutsiyasida pora olish AQSh prezidentini impeachmentga tortish mumkin bo‘lgan ikki jinoyatning biri sifatida ko‘rsatib o‘tilgan. Siyosiy partiyalarning vujudga kelishi va ularning mamlakat hayotidagi o‘rnining oshib borishi XIX-XX asrlarda rivojlangan davlatlarda korrupsiyaning dunyoning boshqa mamlakatlariga nisbatan ancha kamayishiga olib keldi.

Ushbu illatni tadqiq qilgan bir qator yirik mutaxassislar quyidagi faktorlarni korrupsiyani yuzaga keltiruvchi omillar sifatida ko‘rsatadi.

Ikki xil ma’noni anglatuvchi qonunlar — ushbu vaziyat huquqni qo‘llovchi mansabdor shaxs tomonidan qonunlarni turlicha qo‘llash imkonini yaratadi. Shuningdek, ayrim mutaxassislar jinoyat, ma’muriy qonunchilikdagi “vilka” sanksiyalarni ham korrupsiyaga qulay sharoit yaratishi mumkinligi haqida fikr yuritishgan. Ya’ni, sanksiyaning aniq miqdori yo‘qligi sudyada uni o‘z hohishiga qarab qo‘llashga sharoit yaratib beradi.

Aholi huquqiy savodxonligining pastligi — aholi tomonidan qonunlarni bilmaslik yoki tushunmaslik mansabdor shaxsga o‘zining shaxsiy manfaati yo‘lida qonunlardan foydanishga qulay sharoit yaratadi.

Mamlakatdagi siyosiy vaziyatning notinchligi — mamlakatdagi notinchlik bиринчи navbatda aholi ongida hayotda yuksak turmush darajasiga erishishning asosiy usuli qonunga xilof faoliyat bilan bog‘liq, degan mutlaqo axloqqa zid nuqtai nazar shakllanishiga olib keladi. Bu esa o‘z navbatida korrupsiyaga qulay sharoit yaratadi.

Ijro hokimiyatining birligi tamoyilinining buzilishi — aynan bitta faoliyatning turli instansiyalar tomonidan tartibga solinishi:

- aholining davlatni nazorat qilishdagi sust ishtiroki;
- davlat sektoridagi xizmat qilayotgan xizmatchilar daromadlarining xususiy sektorda topish mumkin bo‘lgan daromadlardan kamligi;
- tiqtisodiyotning davlat tomonidan tartibga solinishi;
- inflyatsiyaning yuqori darajasi;
- mamlakat yuqori boshqaruv organlarining aholidan uzilib qolganligi;
- mamlakatdagi diniy va axloq qoidalari.

Jamiyatda korrupsiya oddiy xalq vakillarining yuqori amaldorlarga yoxud davlat amaldorlarining o‘zaro bir-birlariga bo‘lgan munosabatidan kelib chiqadi. Ushbu salbiy holatning har qanday ko‘rinishi jamiyatni halokat yoqasiga olib borishi muqarrardir. Korrupsiyaning tarixi antik davrlarga borib taqaladi. Qadimgi Yunoniston davlatida oddiy xalq vakillari oqsoqollarga va turli darajadagi amaldorlarga sovg‘a-salomlar berishgan. Xuddi shunday holatlar qadimgi Misrda ham kuzatilgan: bu yerda erkin dehqonlar, hunarmandlar va hatto harbiy a’yonlarga nisbatan ham o‘zboshimchalik va zo‘ravonlik ishlatgan hamda qonunbuzarliklarni o‘ziga kasb qilib olgan amaldorlar byurokratik apparati yuzaga kelgandi.

**Korrupsiyaga qarshi kurash tarixi.** Korrupsiya tarixi insoniyat tarixi kabi ko‘hnadir. Qadimgi yunon faylasufi Aristotel shunday degan edi: “Har qanday davlat tuzumida eng muhim – bu qonunlar va tartib-qoidalar vositasida ishni shunday tashkil etishki, mansabdor shaxslar qing‘ir yo‘l bilan boylik orttira olmasin”. Pora olish va berish Qadimgi Rimda amal qilgan 12 jadval qonunlarida tilga olingan.

Korrupsiya haqidagi eng qadimgi qaydlardan biriga qadimgi Bobilning mixxatda yozilgan bitiklarida duch kelingan. Miloddan avvalgi uchinchi ming yillikning o‘rtalariga taalluqli bo‘lgan matnlarda aytishicha, shumer podshosi Urukagin o‘sha zamonlardayoq qonunga xilof haq olishga ruju qo‘yan sudyalar va amaldorlarning qonunbuzarliklariga chek qo‘yish muammosini yechish yo‘llarini izlagan.

Arxeologik tadqiqotlar jarayonida topilgan hujjatlar miloddan avvalgi 597-538 yillarda, yahudiylar Bobil podshosi tomonidan asirga olinganidan keyingi davrda, Ierusalimda korrupsiya ayniqsa avj olganidan dalolat beradi. Professional davlat amaldorlari hali mavjud bo‘lmagan antik jamiyatlar tarixining ilk bosqichlarida (qadimgi yunon shahar-davlatlari, respublika Rimi) korrupsiya deyarli bo‘lmagan.

O‘rta asrlarda O‘zbekiston hududida joylashgan davlatlarda qabul qilingan odat huquqi me’yorlari asosan zamirida islom madaniyati prinsiplari yotuvchi qonunchilik an’analari bilan belgilangan.

Xususan, Amir Temur davlatida amaldorlar ishini tartibga solish maqsadida vaqtı-vaqtı bilan so‘roq, tekshirish, taftish, tergov o‘tkazib turilgan. O‘z amalini suiiste’mol qilish, poraxo‘rlik, doimiy ravishda ichkilik ichish, maishiy buzuqlik kabi qilmishlar og‘ir gunoh hisoblangan va qattiq jazolangan. Tarixiy manbalarda keltirilishicha, Amir Temurning o‘g‘li Mironshoh, nevaralari Pirmuhammad va Halil Sultonlar yuqorida zikr etilgan me’yorlarni buzganlik uchun xalq oldida jazoga tortilganlar.

Korrupsiya har qanday davlat va jamiyat rivojiga jiddiy salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi xavfli omil, barcha mamlakatlarga tahdid soluvchi murakkab ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy hodisadir. Zero, bu omil tufayli davlatning rivojlanishi sekinlashadi, hukumat tizimi ishdan chiqadi, demokratik institatlarga putur yetadi. U saylov jarayonlariga salbiy ta’sir qilib, qonun ustuvorligiga jiddiy ziyon yetkazadi. Shu bilan birga, uning ta’siri ostida fuqarolarning ijtimoiy adolatga, haqiqatga va davlat organlariga ishonchi yo‘qoladi. Har qanday jamiyat uchun ushbu jinoyatga qarshi kurashish eng dolzarb masalalardan biridir. Bizning

davlatimiz korrupsiyaning oldini olish va uning ildizlariga barham berish maqsadida ko‘pgina tadbirlarni amalga oshirmoqda. 2003-yil 9-dekabrda BMT ning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi imzolanganligi ham fikrimizning isbotidir.

Respublikamizda ushbu jinoyatga qarshi kurash sohasida maqsadli siyosat olib borilmoqda. Jumladan, ushbu sohada qonunchilik asoslarini takomillashtirish, davlat organlarining, jamiyatning ochiqligini ta’minlash, axborotlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish borasida ahamiyatli ishlar amalga oshirilmoqda. Darhaqiqat, korrupsiyaga qarshi kurashish va bu sohada samarali chora-tadbirlar ishlab chiqish masalalari davlatimiz rahbariyatining diqqat markazidadir.

Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari va prinsiplarini belgilashda bunday huquqbuzarlik uchun javobgarlikning muqarrarligini ta’minlash masalasi qat’iy hisobga olingan. Korrupsiyaga aralashgan, bu jirkanch illatga qo‘l urgan odam uchun ulug‘ narsalar, mo‘tabar tuyg‘ularning qadri yo‘qoladi. Bunday odamlar hayotda hamma narsani sotib olish va sotish mumkin, deb o‘ylaydi. Ular iymon-e’tiqodga ishonmaydi, ayni paytda bunday kimsalarga hayot uchun aziz sanaladigan hech narsani inonib bo‘lmaydi. Chunki ular ota-onasi, qarindosh-urug‘lari, yor-u birodarlari, mahalla-ko‘yning yuzini yerga qaratishdan, boshini egishdan uyalmaydi.

Qonunga ko‘ra, korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiruvchi, bu jarayonda ishtirok etuvchi organlar hamda tashkilotlarning faoliyatini muvofiqlashtirish uchun Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha respublika idoralararo komissiyasi tashkil etildi. Hammamiz yaxshi bilamiz, qonun huquqiy munosabatlarni tartibga soladi. Vakolatlar, huquq va majburiyatlarni, amalga oshiriladigan chora-tadbirlarni belgilab beradi.

Agar qonun hayotda ishlamasqa, uning bir necha varaq oddiy qog‘ozdan farqi qolmaydi. Shunday ekan, «korrupsiya haqida qonun qabul qilindi, endi hammasi iziga tushib ketadi», deb o‘ylash, xotirjamlikka berilish katta xato bo‘ladi. Korrupsiya balosidan qutulish, islohotlarni uning changalidan ozod etish haqida hammamiz o‘ylashimiz, buning zaruratini har birimiz yuragimizdan o‘tkazishimiz, unga qarshi qat’iy kurashishimiz kerak. Bu kurash kundalik hayotimizdagи oddiy

holatlardan boshlanadi. Shifokordan yaxshiroq maslahat olish, navbatni tezlashtirish, reyting daftarchasiga tuzukroq baho qo‘ydirish va shu kabi vaziyatlarda o‘zimizni munosib tutishimiz lozim bo‘ladi.

O‘zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashning quyidagi usullari mavjud.

1. Ichki nazorat —bu usul boshqaruv apparatining o‘zida nazoratni kuchaytiruvchi tuzilmalar (har xil ichki inspeksiyalar va boshqa nazorat organlari tuzish orqali) yaratishni taqazo etadi. Bu tuzilmaning asosiy vazifasi xodimlarning ichki etiket qoidalariga rioya qilishini nazorat qilishdir. Hozirgi kunda bizning yurtimizda ham bir qator huquqni muhofaza qilish organlarida aynan shu vazifani bajaruvchi ichki tuzilmalar yaratilgan.

2. Tashqi nazorat — bu usulda ijro apparatidan mustaqil tuzilmalarning mustaqilligini oshirish nazarda tutilib, aynan ushbu tuzilmalar orqali korrupsiyaga qarshi samarali kurash olib boriladi. Ya’ni, sud hokimiyatining maksimal darajada mustaqilligiga erishish ommaviy axborot vositalariga ko‘proq erkinlik berish va h.k.

3. Saylov tizimi orqali kurashish —demokratik davlatlarda saylangan vakillarni korrupsiya uchun jazolashning asosiy usullaridan biri keyingi saylovlarda unga ovoz bermaslik hisoblanadi. Korrupsiyaga saylovlar orqali ta’sir o‘tkazish eng samarali usul hisoblanadi.

Korrupsiyaga qarshi kurashda yuqori natijalarga erishgan Shvesiya, Singapur, Gonkong, Portugaliya kabi davlatlarning tajribasini o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, korrupsiyani yuzaga keltiruvchi omillarni bartaraf etish korrupsiyaga qarshi kurashda muhim o‘rin egallaydi.

Bunda Konstitutsiyaviy nazorat organlari, huquq-tartibot organlarining ahamiyati ortadi. Ya’ni, korrupsiyaga olib kelishi mumkin bo‘lgan normalarni konstitutsiyaviy nazorat organi tomonidan konstitutsiyaga zid deb topish, aholining huquqiy savodxonligini oshirish kabi metodlardan unumli foydalanish ushbu davlatlarni korrupsiya darjasи juda past bo‘lgan davlatlar qatoriga olib chiqqan. Biz quyida Singapur davlatida korrupsiyaga qarshi kurashda qo‘llanilgan usullar haqida batafsil to‘xtalib o‘tamiz.

Singapur davlati 1965 yil mustaqillikka erishgach korrupsiya darajasi eng yuqori bo‘lgan davlatlar qatorida turar edi. Lekin bu illatga qarshi o‘tkazilgan bir qator tadbirlar bu davlatda korrupsiyaning minimal darajaga tushishiga olib keldi. Birinchi navbatda bu yerda byurokratik jarayonlar yengillashtirilib sud tizimining mustaqilligi oshirildi (sudyalarning daromadlari va imtiyozlarini oshirish evaziga). Shu bilan birga korrupsiya jinoyatlari uchun sanksiyalar og‘irlashtirilib, fuqarolarga korrupsiyaga qarshi jinoyatlarni tergov qilishda hamkorlik qilishda bosh tortganligi uchun juda katta moliyaviy sanksiyalar belgilandi. Bir qator davlat idoralarida ommaviy “tozalashlar” o‘tkazilib bu jarayonlar telekanallar orqali butun mamlakatga namoyish qilindi. Yuqorida sanab o‘tilgan omillarning hammasi Singapurni qisqa muddatlarda korrupsiya darajasi eng past mamlakatlar ro‘yxatida ilg‘or davlatlar qatoriga olib chiqdi. Shuningdek, davlat xizmatchisining ahloq standartlariga rioya etishini qattiq nazorat ostiga olish ham Singapur davlatida korrupsiyaga qarshi kurashda muhim dastaklardan biri bo‘lib xizmat qiladi.

Korrupsiyaga qarshi kurashda jahon mamlakatlari tajribasini o‘rganish shuni ko‘rsatadiki faqatgina jinoiy qonunchilikni og‘irlashtirish yo‘li bilan bu salbiy illatga qarshi kurashib bo‘lmaydi (XXRda juda ko‘p miqdorda pora olganlik uchun o‘lim jazosi mavjud). Bu illatni yengish uchun birinchi navbatda aholining huquqiy savodxonligini oshirish, fuqarolik institutlari faoliyatini kuchaytirish lozim bo‘ladi.

### **Nazorat savollari:**

1. Korrupsiya tushunchasi, ma’no va mazmuni.
2. Korrupsiyaning tarixiy ildizlari va kelib chiqishi.
3. Korrupsiyaning turlari va ko‘rinishlari.
4. Korrupsiyaga qarshi kurash borasida O‘zbekiston Respublikasi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari.

### **2-Mavzu: Korrupsiyaga qarshi kurash borasida xalqaro huquqiy hujjatlar.**

#### **Reja:**

1. Korrupsiyaga qarshi kurashning huquqiy asoslari.

2. Korrupsiyaga qarshi qaratilgan yuqori samarali chora tadbirlarni qabul qilish va mustahkamlash.
3. Korrupsiyaga qarshi kurashda halqaro hamkorlikning ahamiyati va o‘rni.

Bizga ma’lumki, korrupsiya jamiyatni rivojlanishiga qarshi qaratilgan harakat sifatida har qanday jamiyat va davlatda ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni keltirib chiqaradi hamda ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni chuqurlashtirishga sabab bo‘ladigan omil sifatida baholanadi.

Ko‘pchilik ekspertlar tomonidan jamiyatda korrupsiya murakkab ijtimoiy hodisa sifatida namoyon bo‘lib, unga qarshi kurashish uchun alohida choralarни qo‘llash samarali hisoblanmasligi qayd etilgan. Korrupsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan faoliyat kompleks-majmuaviy tarzda muntazam ravishda izchil amalga oshirilishi yaxshi natija berishi mumkin.

Har bir davlat korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatining maqsadi va ob’ekti sifatida alohida olingan korruptionerga emas, balki ushbu xatti-harakatlarni amalga oshirishga sharoit yaratib beruvchi holatlarni bartaraf qilish va profilaktik oldini olish choralarida namoyon bo‘ladi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarini tashkil etishda quyidagi-larni inobatga olish lozim deb hisoblaymiz:

har bir sohada korrupsiyaga qarshi kurashishda qonun hujjat-larini zamon va islohotlar talablari darajasida takomillashtirish;

aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyat a’zolari bo‘lgan fuqarolarimiz ongida korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni muntazam ravishda shakllantirib borish;

davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish va hayotga izchil tadbiq qilish;

korrupsiyaga oid huquqbazarliklarni o‘z vaqtida aniqlash, ularga barham berish va oqibatlarini keng jamoatchilikka tushuntirish, korrupsiyaga imkon bergen sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish;

korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida tashkiliy choralarni ilmiy va amaliy jihatdan asoslangan holda tashkil etish, ilmiy tadqiqotlar o‘tkazish va bu sohada xalqaro hamkorlikni izchil yo‘lga qo‘yish.

Har qanday davlatda korrupsiyaning rivojlanishi davlatning ichki va tashqi siyosatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi, natijada jamiyat a’zolarini mazkur davlatning organlariga bo‘lgan ishonchiga putur yetkazishga olib keladi.

**O‘zbekiston Respublikasi jinoyat qonunchiligiga ko‘ra korrupsiya jinoyatlarining tavsifi.** Ijtimoiy munosabatlarni korrupsiya jinoyatlaridan muhofaza qilishda korrupsiyaga qarshi kurashning jinoyat-huquqiy vositalari tizimi – O‘zbekiston Respublikasi JK Umumiylari Maxsus qismlari normalarining tartibga solingan majmui muhim o‘rin tutadi.

Mazkur tizimda birlashtirilgan normalarni shartli ravishda besh guruhga ajratish mumkin:

- 1) jinoyatchilik va korrupsiya jinoyatlarini jazolashning umumiy shartlarini tartibga soluvchi normalar majmui (JK Umumiylari qismining normalari);
- 2) korrupsiya jinoyatlari uchun jinoiy javobgarlikni belgilovchi normalar (JK Umumiylari qismining normalari);
- 3) JK Maxsus qismining mansab vakolatlarini suiiste’mol qilib, o‘zganining molmulkini talon-toroj qilganlik uchun javobgarlik o‘rnatuvchi normalari;
- 4) mansabdor shaxsnинг jinoiy qilmishlari uchun jinoiy javobgarlik belgilovchi normalar;
- 5) JK Maxsus qismining mansabdor shaxsnинг jinoyat sodir etishi tasniflovchi belgi hisoblangan mansabga oid bo‘lmagan jinoyatlarning alohida turlari uchun javobgarlik o‘rnatuvchi normalari.

Hozirgi glabollashuv davrida yoki jarayonida korrupsiya muammosi jahonning deyarli har bir mamlakatida mayjudligini ko‘rish mumkin. Ammo bu - barcha davlatlarda ham korrupsiya bir xil degan ma’noni anglatmaydi. Ekspertlarning xulosasiga ko‘ra, korrupsiyaning vujudga kelish sabablari turli mamlakatlarda turli xil bo‘lib, tarixiy rivojlanish bosqichi hamda ijtimoiy-iqtisodiy muammolarning mavjudligi hamda taraqqiyot darajasi bilan belgilanadi.

Bir qator rivojlangan mamlakatlarda davlat boshqaruvi sohasida korrupsiyaning oldini olish va unga barham berishga qaratilgan ma'muriy normalar majmui ishlab chiqilgan.

XX asrning 90 yillaridan xalqaro va mintaqaviy doiralarda korrupsiyaga qarshi kurash bilan bog'liq xalqaro shartnomalar qabul qilina boshlandi.

Korrupsiyani oldini olish va unga qarshi kurashish bo'yicha ko'p tomonlama xalqaro hujjatlar qabul qilingan:

Amerika davlatlari tashkiloti tomonidan 1996 yil 29 mart kuni qabul qilingan "Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha Amerika konvensiyasi";

Yevropa ittifoqi Kengashi tomonidan 1997 yil 21 noyabrda Yevropa hamjamiyatining mansabdor shaxslariga yoki Yevro ittifoqiga a'zo davlatlarning mansabdor shaxslariga daxl qilgan korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha Konvensiyasi;

Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti tomonidan 1997 yil 21 noyabrda qabul qilingan Xalqaro tijorat amaliyotlarida xorijiy mansabdor shaxslarga pora berishga qarshi kurashish bo'yicha Konvensiyasi ;

Yevropa Kengashi Vazirlar qo'mitasi tomonidan 1999 yil 27 yanvar-da qabul qilingan "Korrupsiya uchun jinoiy javobgarlik to'g'risida"gi Konvensiyasi ;

Yevropa Kengashi Vazirlar qo'mitasi tomonidan 1999 yil 4 noyabrda qabul qilingan "Korrupsiya uchun fuqarolik-huquqiy javobgarligi to'g'risida"gi Konvensiyasi;

2003 yil 12 iyuldagи Afrika Ittifoqining "Korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish to'g'risida"gi Konvensiyasi;

BMTning "Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka hamda korrupsiyaga qarshi kurash" Konvensiyasi;

MDH doirasida esa unga a'zo davlatlar tomonidan 2003 yil 15 noyabrdagi qarorga muvofiq, "Korrupsiyaga qarshi siyosatning qonunchilik asoslari to'g'risida"gi qonun qabul qilinganligi ham korrupsiyani jamiyat rivojlanishiga qarshi qaratilgan illat sifatida uning qanchalik xatarli ekanligini ko'rsatadi.

Davlat hokimiysi organlarining korrupsiyaning zararli ta'siridan saqlash zaruriyati AQSh hukumatini korrupsiyaga qarshi kurashni XIX asrdayoq davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilashga olib kelgan.

1978 yilda AQSh Kongressi “Hukumatdagi axloq to‘g‘risida”gi qonunni qabul qilgan. Ushbu Qonunning vazifasi davlat amaldorlari va muassasalari halololigini saqlash hamda bunga imkoniyat yaratishdan iborat.

Kanadaning jinoyat qonunchiligidagi “mansabdor shaxslarni pora evaziga og‘dirish”, “Hukumatni aldash”, “mansabdor shaxs tomonidan sodir etilgan ishonchni suiste’mol qilish” mansabdorlik jinoyatlari hisoblanishi belgilab qo‘yilgan.

1985 yil Kanadada davlat xizmatchilarining xizmat vazifalari va shaxsiy manfaatlari o‘rtasidagi ziddiyat yuzaga kelgan holda ular amal qilishi shart bo‘lgan xulq-atvor qoidalarini o‘zida mujassam qilgan Kodeks qabul qilingan.

Kanadalik qonun ijodkorlarining fikriga ko‘ra, ushbu qonunlardan ko‘zlangan maqsad – davlat apparati va davlat xizmatchilarining halolligiga jamiyatning ishonchini oshirishga qaratilganligini qayd etishadi.

Davlat xizmati tizimida korrupsiyani oldini olish, unga qarshi kurashish va barham berish maqsadida Fransiyada XX asrning

90 yillarida saylangan barcha davlat xizmatchilarini va korrupsiya ta’siriga berilishi mumkin bo‘lgan jamoat xizmati kadrlariga o‘z mol-mulki va daromadlari haqida tegishli davlat idoralariga ma’lumot berish majburiyatini yuklash to‘g‘risida qaror qabul qilingan.

Shuningdek, davlat apparati yuqori martabali xodimlarining daromadlari va mol-mulki haqidagi deklaratsiyalar keng miqyosda oshkor etilishini ta’minlaydigan huquqiy va tashkiliy asoslar qonun ijodkorligi asosida yaratilgan.

Korrupsiyani oldini olishning nazariy poydevori “ta’lim, xabardorlik va targ‘ibot” (Education, Awareness and Advocacy) tamoyillariga asoslanib, amaliy tomonidan esa “samaradorlik, shaffoflik va hisobdarlik” (effectiveness, transparency, accountability) tamoyillari asosida aniq davlat siyosatini ishlab chiqishdan iborat. Bu borada davlat siyosati dunyoda (xususan, Singapurda) “one

size fits all” (“barcha uchun bir xil mezon”) tamoyillari ishlab chiqilgan va o‘zining ijobiy natijasini bergen.

“Respublika bo‘yicha 2018 yilda 1561 nafar turli toifadagi mansabdar shaxs jinoiy javobgarlikka tortilgan. Bularning aksariyatini – 580 nafar xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar rahbarlari, 257 nafari – ta’lim sohasi, 83 nafari – sog‘liqni saqlash tizimi, qolgan qismini boshqa soha vakillari tashkil qiladi. Jinoyati fosh qilingan mansabdar shaxslarning 39 nafari respublika, qolganlari viloyat tuman-shahar miqyosidagi vazirliklar, idoralar hamda korxona va tashkilotlarda ishlab kelgan. Jinoiy javobgarlikka tortilgan bu xodimlarning 821 nafari o‘zganing mulkini o‘zlashtirish yoki rastrata yo‘li bilan talon-toroj qilish, 138 nafari pora olish va berish, qolganlari esa boshqa mansabdarlik jinoyatlari uchun javobgar bo‘lgan”. Mazkur tahliliy materillardan ham ko‘rinib turibdiki, keyingi ikki yilda mamlakatimizda korrupsiyani oldini olish va korrupsiyaga qarshi kurashish ishlari davlatning vakolatli organlari tomonidan izchil ravishda amalga oshirilayotganligini ko‘rsatadi.

Mamlakatimizda Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoev rahnomaligida amalga oshirilayotgan islohotlarning ustuvor vazifalaridan biri korrupsiyaga qarshi tizimli ravishda kurashish davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Korrupsiyaga qarshi kurashishning huquqiy asoslari, tashkiliy tuzilmasi va amalga oshirish strategiyasi xalqaro huquqiy talablarasosida belgilandi. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korrupsiyaga qarshi konvensiyasiga (Nyu-York, 2003 yil 31 oktabr) qo‘silishi jamiyat taraqqiyotini amalga oshirishning milliy mexanizmi sifatida “Korrup-siyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonun, Prezidentning “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining qoidalarini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2752-son qarori qabul qilindi.

Korrupsiyaga qarshi kurashishning alohida institusional tuzilmasi sifatida Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha respublika idoralararo komissiyasi tashkil etilib, hozirgi kunda mazkur idora UNODC (BMTning Narkotik va jinoyatchilik bo‘yicha idorasi), UNDP (BMT taraqqiyot dasturi) va OSCE (Yevropa xavfsizlik

va hamkorlik tashkiloti) kabi xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda faoliyat olib borayotganligi jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha fuqarolarning daxldorligini kuchaytirish hamda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha davlat dasturining qabul qilinishi bu borada davlat siyosatini amalga oshirish strategiyasining asosiy yo‘nalishlarini belgilab berilishi davlat bilan jamiyat a’zolari bo‘lgan fuqarolarning korrupsiyaga qarshi kurashish izchil davom ettirishga shart-sharoitlar yaratmoqda.

**Nazorat savollari:**

1. Korrupsiyaga qarshi kurash va uning huquqiy asoslari.
2. Korrupsiyaga qarshi qaratilgan yuqori samarali chora tadbirlarni qabul qilish va mustahkamlash.
3. O‘zbekiston Respublikasi jinoyat qonunchiligiga ko‘ra korrupsiya jinoyatlarining tavsifi.
4. Korrupsiyaga qarshi kurashda halqaro hamkorlikning ahamiyati va o‘rni.

**3-Mavzu: 2008 yil iyul oyida O‘zbekiston Respublikasini BMTning Korrupsiyaga qarshi kurash konvensiyasiga qo‘shilishi.****Reja:**

1. BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiya mazmuni va mohiyati.
2. BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasidagi asosiy vazifalar.
3. BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasiga (Nyu-York, 2003 yil 31 oktabr) O‘zbekiston Respublikasining qo‘shilishi to‘g‘risida qonunning ahamiyati.

**BMTning korrupsiyaga qarshi kurash borasidagi hujjatlari:**

- 1) “Huquqiy tartibotni saqlash bo‘yicha mansabdar shaxslarning xulq-atvor Kodeksi” (BMT Bosh assambleyasining Rezolyusiyasi bilan 1979 yil 17 dekabrda qabul qilingan);
- 2) Huquqiy tartibotni saqlash bo‘yicha mansabdar shaxslarning xulqatvor Kodeksini samarali amalga oshirilishi uchun rahbariy prinsiplar (BMTning Iqtisodiy va Ijtimoiy Kengashi rezolyusiyasi bilan 1989 yil 24 mayda qabul

qilingan);

3) Davlat mansabdar shaxslarining Xalqaro xulq-atvor kodeksi (BMT Bosh assambleyasining Rezolyusiyasi bilan 1996 yil 12 dekabrda qabul qilingan);

4) BMTning Xalqaro tijorat operatsiyalarida korrupsiya va poraxo‘rlikka qarshi kurash to‘g‘risidagi Deklaratsiyasi (BMT Bosh assambleyasining Rezolyusiyasi bilan 1996 yil 16 dekabrda tasdiqlangan);

5) Terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurash to‘g‘risidagi xalqaro konvensiya (BMT Bosh assambleyasining Rezolyusiyasi bilan 1999 yil 9 dekabrda qabul qilingan);

6) BMTning Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash to‘g‘risidagi Konvensiyasi (BMT Bosh assambleyasining Rezolyusiyasi bilan 2000 yil 15 noyabrda qabul qilingan);

7) BMT Forumining ofshorlar bo‘yicha Kommyunikesi (Kayman orollari, 2000 yil 30-31 mart);

8) BMT Bosh kotibining korrupsiyaga oid ma’ruzasi (Vena, 2001 yil 8-17 may);

9) Korrupsiyaga qarshi kurash bo‘yicha chora-tadbirlar to‘plami (2001 yil iyun);

10) Korrupsiyaga qarshi kurash choralari. Pulni tozalashga qarshi kurash choralari. Jinoyatchilik va odil sudlov: XXI asr chorloviqa javoblar to‘g‘risidagi Vena deklaratsiyasini amalga oshirish harakat Rejasi (BMT Bosh assambleyasining Rezolyusiyasi bilan 2002 yil 15 aprelda qabul qilingan);

11) BMTning Korrupsiyaga qarshi kurash to‘g‘risidagi Konvensiyasi (BMT Bosh assambleyasining Rezolyusiyasi bilan 2003 yil 31oktyabrda qabul qilingan).

**Yevropa Kengashi va Yevropa Ittifoqining korrupsiyaga qarshi kurash borasidagi hujjatlari:**

1) Yevropa Kengashining korrupsiya uchun jinoiy javobgarlik to‘g‘risidagi Konvensiyasi (Strasburg, 1999 yil 27 yanvar);

2) Yevropa Kengashining korrupsiya uchun fuqarolik-huquqiy javobgarlik to‘g‘risidagi Konvensiyasi (Strasburg, 1999 yil 9 sentabr);

- 3) Yevropa Kengashining jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni tozalash, aniqlash, olib qo‘yish va musodara qilish to‘g‘risidagi Konvensiyasi (Strasburg, 1990 yil 8 noyabr);
- 4) Korrupsiyaga qarshi kurashning yigirmata prinsipi (Yevropa Kengashi Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan 1997 yil 6 noyabr);
- 5) Davlat xizmatchilari uchun Model xulq-atvor kodeksi (Yevropa Kengashi Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan 2000 yil 11 may);
- 6) Siyosiy partiyalarni va saylov kampaniyasini moliyalashtirishda korrupsiyaga qarshi yagona qoidalar (Yevropa Kengashi Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan 2003 yil 8 aprel);
- 7) Moliyaviy tizimdan pulni tozalash maqsadlarida foydalanishga yo‘l qo‘ymaslik to‘g‘risidagi YeII Direktivasi (1991 yil 10 iyun);
- 8) Pulni tozalashga qarshi Parij deklaratsiyasi (Yevropa Ittifoqining pulni tozalashga qarshi parlamentar konferensiyasining Yakuniy deklaratsiyasi 2002 yil 8 fevral).

**Mustaqil Davlatlar Hamdo‘sligi doirasida korrupsiyaga qarshi kurash borasida qabul qilingan hujatlar :**

- 1) Jinoyatchilikka qarshi kurashda Mustaqil Davlatlar Hamdo‘sligiga ishtirokchi-davlatlarning hamkorligi to‘g‘risidagi Kelishuvi (Moskva, 1998 yil 25 noyabr);
- 2) “Korrupsiyaga qarshi siyosatning qonunchilik asoslari to‘g‘risida”gi Namunaviy qonuni (MDH Parlamenlararo assambleyasining XXII plenar yig‘ilishida qabul qilingan 2003 yil 15 noyabr);
- 3) “Korrupsiyaga qarshi kurash to‘g‘risida”gi Namunaviy qonuni (MDH Parlamenlararo assambleyasining XIII plenar yig‘ilishida qabul qilingan 1999 yil 3 aprel);
- 4) “G‘ayriqonuniy yo‘ldan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshilik qilish to‘g‘risida”gi Namunaviy qonuni (MDH Parlamenlararo assambleyasining XII plenar yig‘ilishida qabul qilingan 1998 yil 8 dekabr);
- 5) “Uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash to‘g‘risida”gi tavsiyaviy

qonunchilik akti (MDH Parlamenlararo assambleyasining qarori bilan qabul qilingan 1996 yil 2 noyabr).

6) Jinoiy daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo‘yicha Yevroсиyo guruhi to‘g‘risidagi bitim (Moskva, 2011 yil 16 iyun).

**Boshqa xalqaro tashkilotlarning korrupsiyaga qarshi kurash borasidagi hujjatlari:**

1) Ish yuzasidan xalqaro operatsiyalarni amalga oshirishda chet ellik davlat mansabdor shaxsi tomonidan pora berishga qarshi kurash to‘g‘risidagi Konvensiya (Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OESR) tomonidan qabul qilingan 1997 yil 21 noyabr);

2) Korrupsiyaga qarshi kurash to‘g‘risidagi Amerikaaro konvensiyasi (Karakas, 1996 yil 29 mart);

3) Adliya va xavfsizlik organlari xodimlariga nisbatan korrupsiyaga qarshi kurash va ularning vijdonli va pok bo‘lishini ta’minlash choralar bo‘yicha umumiy tavsiyalar (Korrupsiyaga qarshi kurash masalalari bo‘yicha Global forum, Vashington, 1999 yil 24-26 fevral).

**BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi.**

Korrupsiyaga qarshi kurash borasidagi eng asosiy xalqaro hujjat bu - shubhasiz, BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi mazkur xalqaro hujjatni ratifikatsiya qilgan: O‘zbekiston Respublikasi Oliy majlisi Qonunchilik palatasi tomonidan “BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasiga O‘zbekiston Respublikasining qo‘silishi to‘g‘risida”gi Qonuni 2008 yil 24 iyunda qabul qilindi va 2008 yil 27 iyunda O‘zbekiston Respublikasi Oliy majlisi Senati tomonidan ma’qullandi va 2008 yil 28 avgustdan e’tiboran kuchga kirdi.

BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi muqaddima hamda 8 ta bob, 71 ta moddadan iborat bo‘lib, 1-bobda (1-4) umumiy qoidalar, 2-bobda (5-14) korrupsiyaning oldini olish choralar, 3-bobda (15-42) jinoyatchilik va huqujni muhofaza qilish faoliyati, 4-bobda (43-50) xalqaro hamkorlik, 5-bobda (51-59)

aktivlarni qaytarish bo‘yicha choralar, 6-bobda (60-62) texnik yordam va ma’lumot almashinushi, 7-bobda (63-64) amalga oshirish mexanizmlari, 8-bobda (65-71) yakuniy qoidalar aks etgan.

2008 yil 7 iyul, O‘RQ-158-son 3. BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasiga (Nyu-York, 2003 yil 31 oktabr) O‘zbekiston Respublikasining qo‘silishi to‘g‘risida qonunning Qonunchilik palatasi tomonidan 2008 yil 24 iyunda qabul qilingan. Senat tomonidan 2008 yil 27 iyunda ma’qullangan.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korrupsiyaga qarshi konvensiyasiga (Nyu-York, 2003 yil 31 oktabr) quyidagi bildirishlar, bayonetlar va shartlar bilan qo‘silsin:

1) Konvensiya 6-moddasining 3-bandni bo‘yicha: «O‘zbekiston Respublikasi shuni bildiradiki, O‘zbekiston Respublikasining Bosh prokuraturasi, Ichki ishlar vazirligi, Milliy xavfsizlik xizmati va Adliya vazirligi korrupsiyaning oldini olish bo‘yicha aniq chora-tadbirlar ishlab chiqish va ularni amalga oshirishda boshqa Ishtirokchi-davlatlarga yordam ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan organlar sifatida belgilangan»;

2) Konvensiya 42-moddasining 1 va 3-bandlari bo‘yicha: «O‘zbekiston Respublikasi shuni bayon qiladiki, 15—19, 21, 22-moddalarda, 23-moddaning 1-bandida, 24, 25, 27-moddalarda nazarda tutilgan qilmishlar milliy qonunchilikka muvofiq jinoiy jazolanadigan qilmishlardir va ularga nisbatan O‘zbekiston Respublikasining yurisdiksiyasi tatbiq etiladi»;

3) Konvensiya 44-moddasining 6-bandni bo‘yicha: «O‘zbekiston Respublikasi Konvensiya 44-moddasi 6-bandining «a» kichik bandiga muvofiq shuni bildiradiki, u ushbu Konvensiyadan korrupsiya jinoyatlari sodir etgan shaxslarni tutib topshirish masalalarida ushbu Konvensiyaning boshqa Ishtirokchi-davlatlari bilan o‘zarolik asosida hamkorlik qilish uchun huquqiy asos sifatida foydalanadi»;

4) Konvensiyaning 46-moddasi bo‘yicha:

a) 13-band. «O‘zbekiston Respublikasi shuni bildiradiki, O‘zbekiston Respublikasining Bosh prokuraturasi o‘zaro huquqiy yordam ko‘rsatish

to‘g‘risidagi iltimoslarni olish va bajarish yoki bunday iltimoslarni bajarish uchun O‘zbekiston Respublikasining boshqa vakolatli organlariga yuborishga javobgar bo‘lgan markaziy organdir»;

b) 14-band. «O‘zbekiston Respublikasi shuni bildiradiki, o‘zaro huquqiy yordam to‘g‘risidagi iltimoslarni yuborishda o‘zbek, rus va ingliz tillari maqbul tillar sifatida belgilangan»;

Konvensiyaning 66-moddasi bo‘yicha: «O‘zbekiston Respublikasi Konvensiya 66-moddasining 3-bandiga muvofiq shuni bayon qiladiki, u o‘zini Konvensiya 66-moddasi 2-bandining qoidalariga bog‘liq deb hisoblamaydi».

### **Nazorat savollari:**

1. BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiya qachon qabul qilingan.
2. Konvensiyaning mazmuni-mohiyati va ahamiyati.
3. BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasidagi asosiy vazifalar.
4. BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasiga (Nyu-York, 2003 yil 31 oktabr) O‘zbekiston Respublikasining qo‘shilishi.

### **4-Mavzu: O‘zbekiston Respublikasi “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonuni va qarorda belgilangan vazifalar.**

#### **Reja:**

1. Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi qonun hujjatlari.
2. Korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy prinsiplari.
3. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatning samaradorligini oshirish.

O‘zbekiston prezidenti Shavkat Mirziyoev 2017 yil 3 yanvar kuni «Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida»gi qonunni imzoladi. Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi qonun hujjatlari ushbu Qonun va boshqa qonun hujjatlaridan iboratdir.

Agar O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo‘lsa, xalqaro shartnomada qoidalari qo‘llaniladi.

Ushbu Qonunda quyidagi **asosiy tushunchalar** qo‘llaniladi:

korrupsiya — shaxsning o‘z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o‘zga shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish;

korrupsiyaga oid huquqbazarlik — korrupsiya alomatlariga ega bo‘lgan, sodir etilganligi uchun qonun hujjatlarida javobgarlik nazarda tutilgan qilmish;

manfaatlar to‘qnashuvi — shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorlik shaxsning mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta’sir ko‘rsatayotgan yoxud ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarning, tashkilotlarning, jamiyatning yoki davlatning huquqlari va qonuniy manfaatlari o‘rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan yoki yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan vaziyat.

Korrupsiyaga qarshi kurashishning **asosiy prinsiplari** quyidagilardan iborat:  
qonuniylik;

fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining ustuvorligi;

ochiqlik va shaffoflik;

tizimlilik;

davlat va fuqarolik jamiyatining hamkorligi;

korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar ustuvorligi;

javobgarlikning muqarrarligi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi **davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari** quyidagilardan iborat:

aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish;

davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlarni amalga oshirish;

korrupsiyaga oid huquqbazarliklarni o‘z vaqtida aniqlash, ularga chek qo‘yish, ularning oqibatlarini, ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish, korrupsiyaga oid huquqbazarliklarni sodir etganlik uchun

javobgarlikning muqarrarligi prinsipini ta'minlash.

Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosati davlat dasturlari va boshqa dasturlar asosida amalga oshirilishi mumkin.

Davlat dasturlari va boshqa dasturlar ushbu Qonunning qoidalari samarali ijro etilishini ta'minlash, korrupsiyaning holati hamda tendensiyalardan kelib chiqqan holda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha kompleks va tizimli chora-tadbirlar ko'rish maqsadida ishlab chiqiladi hamda amalga oshiriladi.

O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasining samarador-ligini ta'minlashda quyidagilarni e'tibor olish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

birinchidan – korrupsiyaga qarshi kurashning samaradorligiga erishish modeli ishlab chiqilib, korrupsiyaga qarshi kurashishning aniq huquqiy mexanizmi, samarali institusional tuzilmasi, moliyaviy va mehnat resurslari bilan doimiy ta'minlab turilishi, muntazam monitoring faoliyati hamda xolis va shaffof baholash tizimi aniq qonunchilikda mustahkamlanishi lozim. Amaldagi qonunchilikda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha davlat siyosatining yuqoridagi sanab o'tilgan huquqiy va iqtisodiy hamda ijtimoiy elementlari o'rtaida o'zaro hamkorlik va bir-biriga ta'sir qilish mexanizmi yo'lga qo'yilmagan. Demak, korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha yaxlit kompleks tizimning uzviy ishlashini jamiyatda yo'lga qo'yish qo'yish uning samaradorligini ta'minlaydi;

ikkinchidan – korrupsiyaga qarshi kurashish strategiyasida innavasion yondashuvni samarali qo'llash. Bunda davlat organlarining fuqarolik jamiyatining barcha institutlari bilan hamjihat faol harakatini ta'minlash, shuningdek, korrupsiyaga qarshi kurashishda milliy tuzilmalarning xalqaro tashkilotlar bilan hamkorligini yanada kuchaytirish masalalariga alohida e'tibor berish. Bunda, O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida integratsiyaga erishishga to'sqinlik qilayotgan omillardan biri – jinoyat va jinoyat prsessual qonunchiligini koorupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha moddalarini mukamal ishlab chiqish hamda korrupsiyani keltirib chiqarayotgan holatlarni o'rganish, tahlil qilish va korrupsiyani oldini olishga qaratilgan dasturlar, chor-tadbirlarni ishlab chiqish va

hayotga tadbiq qilishda aniq statistika hamda dalillarga asoslangan ma'lumotga tayangan holda ish olib borish korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi;

uchinchidan – jamiyatning ijtimoiy sohalarida xususan, tadbirkor-lik, ta'lim, sog'liqni saqlash jumladan, huquqni muhofaza qilish sohalarida korrupsiyaga qarshi kurashishni yanada kuchaytirish, korrupsiya bilan bog'liq ayrim xattiharakatlarni barham berishga qaratilgan dasturlar ijrosini barcha sohalarda ta'minlash hamda xalqaro tajribani o'rganish asosida xalqaro hujjatlarda nazarda tutilgan standartlarni qonunchilikda mustahkamlash yaxshi natijalarga erishish imkoniyatini yaratadi;

to'rtinchi – korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha davlat dasturini ijrosini jamiyatda ta'minlanishi va bu borada tizimli monitoring qilish bo'yicha samarali huquqiy mexanizmning islohotlar talablari darajasida ishlab chiqish hamda davlat xizmatchilarining korrupsiyaga qarshi kurashish qoidalariga rioya qilish darajasining talab darajasidan pastligi, davlat organlari faoliyati ochiqligi tamoyilining amalda ta'minlanishi, korrupsiyani oldini olishga qaratilgan qonunchilik normalarini xalqaro huquq talablari asosida takomillashtirish jamiyatda ijtimoiy adolatni o'rnatishga xizmat qiladi.

beshinchi – korrupsiyaga qarshi kurashishning zamonaviy tendensiyalaridan kelib chiqib amalda real ishlaydigan strategiyani ishlab chiqish asosida zamonaviy tendensiyaga ko'ra, korrupsiyaga qarshi kurashish masalan mamlakatimizda davlat xizmatlari agentligini tashkil etilganligi va xalqimizga xalqaro talablar asosida xizmat qilinayotganligi jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashishining yangi bosqichini boshlab berib, fuqarolarning korrupsiyaga qarshi kurashish daxldorligini oshirishda muhim qadamlardan bo'layotganligini qayd etish va ommaviy axborot vositalarida keng yoritish;

oltinchidan – korrupsiyaga qarshi kurashish va uning oldini olish ishlarini tashkil etishda jamiyat a'zolari bo'lgan fuqarolarimizni faol ishtirokini kuchaytirish, korrupsiyaga tegishli bo'lgan ma'lumotlarni o'rganish imkoniyatini yaratish, yangi texnologiyalardan foydalangan holda korrupsiya holatlari haqida

axborot berish, korrupsiyaga oid muammolarni hal qilish va bartaraf etishda jamoatchilik nazoratini ta'minlashning izchil tizimini yaratish va hayotga tadbiq qilish;

yetinchidan, O'zbekistonda har bir sohada korrupsiyaga qarshi kurashishda sohaning xususiyatlaridan kelib chiqib yondashish, korrupsiya holatlari oldini olishga qaratilgan yangi innovation usullarini ishlab chiqish va qo'llash, korrupsiya holatlarini ekspertizadan o'tkazish, monitoring qilish va baholash jamiyatda korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarnip ishlab chiqish jamiyatni qonuniy rivojlanishiga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 26 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagи ma'ruzasida jamiyatda inson huquq va manfaatlarini himoya qilishning qonuniy asoslari takomillashtirilganligi borasida quyidagi tahliliy ma'lumotlarni ta'kidladi.

“Bugungi kunda yurtimizda inson huquq va erkinliklarini qonuniy himoya qilish bo'yicha salmoqli ishlar qilinmoqda. Jumladan, shaxsni ayblashda qonunga zid usulda olingan ma'lumotlardan dalil sifatida foydalanganlik uchun qat'iy javobgarlik belgilandi.

Keyingi ikki yilda sudlar mustaqilligini ta'minlash bo'yicha muhim choralar ko'rildi. Jumladan, joriy yilning o'zida 1 ming 881 ta jinoyat ishi dalillar yetarli bo'limganligi sababli tugatildi, sudlar tomonidan 590 nafar shaxs oqlandi. Vaholanki, bu raqam 2016 yilda – e'tibor bering – bor – yo'g'i 28 tani, 2017 yilda esa 263 tani tashkil etgan edi.

Shuningdek, 5 ming 462 nafar shaxsga nisbatan tergovda asossiz qo'yilgan moddalar ayblovdan chiqarilib tashlandi, 2 ming nafar shaxs esa sud zalidan ozod qilindi. Sudlarda ishlarni yillar davomida qayta-qayta ko'rish amaliyotiga butunlay chek qo'yildi.

Insonparvarlik tamoyili asosida yangi amaliyot joriy etilmoqda. Buning natijasida jinoyat yo'liga adashib kirib, qilmishiga

chin dildan pushaymon bo'lgan 993 nafar fuqaro, jumladan, 456 nafar yigit-qiz hamda 113 nafar ayollar Yoshlar ittifoqi, mahallalar va xotin-qizlar

qo‘mitalarining kafilligi bilan jazodan ozod qilindi.

Shunindek, jazoni o‘tayotgan 3 ming 333 nafar, jumladan, faoliyati man etilgan tashkilotlarga kirib qolgan 646 nafar mahkum avf etilib, oilasi bag‘riga qaytarildi.

Bir paytlar diniy ekstremistik guruahlarga aloqasi bor, deb nazoratga olingan 20 mingdan ziyod fuqaro “maxsus hisoblar”dan chiqarildi.

Man etilgan tashkilotlarga adashib kirib qolgan, qilmishiga pushaymon bo‘lib, tuzalish yo‘liga o‘tgan fuqarolarning murojaat-larini ko‘rib chiqish bo‘yicha Respublika idoralararo komissiyasi tuzildi”.

O‘zbekiston Respublikasi 2008 yil 7 iyuldaggi O‘RQ-158-sonli qonuni bilan Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korrupsiyaga qarshi konvensiyasiga (NYU-YORK, 2003 yil 31oktabr) O‘zbekiston Respublikasi qo‘shilgan.

Mamlakatimizda demokratik islohotlarni amalga oshirishning bugungi sharoitida korrupsiyaga qarshi murosasiz kurashish davlat va jamiyat oldidagi muhim va ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Mazkur vazifalarni amalga oshirish mustahkam huquqiy asos va samarali huquqiy mexanizmni joriy etilishini talab etadi. Shu munosabat bilan 2017 yil 3 yanvardagi O‘zbekiston Respublikasining «Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida»gi qonuning kuchga kiritilishi “Inson manfaatlari hamma narsadan ustun”, “Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak”, degan ezgu g‘oyalarni jamiyat hayotiga tatbiq qilish hamda jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarini samarali tashkil qilish maqsadida qabul qilingan. Bu esa o‘z navbatida, O‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichini boshlab bergen strategik islohotlarni samarali yakunlanishi hamda “yashirin iqtisodiyot”ga barham berilishiga xizmat qilishini qayd etish joiz.

Mazkur Qonunning 3-moddasiga muvofiq:

- korrupsiya deganda – shaxsning o‘z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarni ko‘zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shunindek bunday nafni qonunga xilof raishda taqdim etish tushuniladi.

- korrupsiya oid huquqbazarlik deganda – korrupsiya alomatlariga ega bo‘lgan, sodir etilganligi uchun qonun hujjatlarida javobgarlik nazarda tutilgan qilish tushuniladi;

- manfaatlar to‘qnashuvi deganda - shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorlik shaxsning yoki xizmat majburiyat-larining lozim darajada bajarishiga ta’sir ko‘rsatayotgan yoxud ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarning, tashkilot-larning, jamiyatning yoki davlatning huquqlari va qonuniy manfaatlari o‘rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan yoki yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan vaziyat tushuniladi.

Bugungi kunda korruksianing oldini olish va unga qarshi kurashishda quyidagi masalalarni e’tiborga olish lozim:

korrupsiya va uning oqibatlari jamiyat rivojlanishiga to‘siq bo‘layotganligi, uning ijtimoiy xavfllilik darjasи sodda va tushunarli tilda huquqiy jihatidan sharhlangan holda jamoatchilikni xabador qilish;

har bir sohada korruksianing kelib chiqish sabablarini ilmiy va amaliy jihatdan tahlil qilish orqali qonunchilikni hamda ichki tartib qoidalarni takomillashtirish bo‘yicha asosli taklif va tavsiyalar ishlab chiqish;

har bir davlat organida o‘z xodimlarini korrupsiya holatlaridan ogohlantirish va korruksianing oldini olishga qaratilgan samarali mexanizmni ishlab chiqish va uni real hayotga tadbiq qilish chora-tadbirlarini belgilash;

har bir sohada korruksiyani oldini olishga qaratilgan davlat siyosatini ta’minlash orqali korruksiyaga sabab bo‘luvchi holatlarga barham berishga erishish;

jamiyatda korrupsiya jinoyatini sodir etgan shaxslarga nisbatan ya’ni korruptionerlarga nisbatan jazo muqarrarligi mamlakatimizda qonun ustuvorligi asosida ta’milanyotganligi xususida ommaviy axborot vositalarida muntazam ravishda keng yoritib borishni yo‘lga qo‘yish;

har bir sohada korruksiyani oldini olish ishlarini tashkil etishga keng jamoatchilikni, shu jumladan, nodavlat notijorat tashkilotlarini jalb qilish va ular faoliyatini rag‘batlantirish korruksiyaga qarshi ishlarni samaradorligini oshirish;

ijtimoiy-iqtisodiy sohada faoliyat yuritayotgan davlat organlari tizimida ma'muriy-byurokratik to'siqlarni bartaraf etish, ro'yxatga olish, ruxsat etish va lisenziyaga doir tartib-taomillarni yanada soddalashtirish;

davlatning vakolatlari organlarining nazorat-tekshiruv vazifalarini maqbullashtirish, tadbirkorlik sub'ektlarining faoliyatini tekshirish tizimini takomillashtirish, ularning faoliyatiga qonunga xilof ravishda aralashishga yo'l qo'ymaslik chora-tadbirlarini yanada takomillashtirilgan holda mustahkamlash;

davlat organlari va tadbirkorlik sub'ektlari o'rtaida o'zaro munosabatlarning nazorat qilishning masofaviy shakllari-ni keng joriy etish asosida tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatida huquqbuzarliklarni oldini olish bo'yicha o'z vakolatlari doirasida taklif va tavsiyalar berish;

Har bir sohada o'zining xususiyatidan kelib chiqib, "Axloq-odob qoidalari"ni tasdiqlash, mazkur qoidalarning alohida bo'limida korrupsiyaga qarshi kurashish qoidalarni belgilab qo'yish;

Har bir sohada korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarni tashkil etish xodimlarning bu sohadagi javobgarliklarini ichki lokal hujjatlarda aniq belgilab qo'yishda yuridik xizmat rolini oshirish korrupsiyani oldini olish ishlarini samarali bo'lishiga xizmat qiladi.

### **Nazorat savollari:**

1. Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlari va mazmuni.
2. Korrupsiyaga qarshi kurashishning huquqiy asoslari va prinsiplari.
3. Korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi ishlarning tashkil qilinishi.
4. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatning samaradorligini oshirishning ahamiyati.

### **5-Mavzu: Korrupsiyaga qarshi kurash sub'ektlari va idoralararo komissiyaning asosiy vazifalari.**

#### **Reja:**

1. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha idoralararo komissiyalar.
2. Idoralararo komissiyaning asosiy vazifalari.

3. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiruvchi davlat organlari.

2017 yil 2 fevraldagি O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining qoidalarini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2752-qarorida Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha idoralararo komissiyasini tuzilishi, mazkur Komissiya to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlanishi, Mazkur Nizomda Komissiyaning asosiy vazifalari, huquq va majburiyatları aniq belgilab qo‘yilganligi mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish hamda uning oldini olish ishlarini tizimli ravishda olib borilishiga shart-sharoitlar yaratadi va korrupsiyani oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar ijrosini samarali ta’milanishga xizmat qiladi.

Mazkur Qonunning 8-moddasiga muvofiq: Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha respublika Idoralararo komissiyasining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat dasturlarining va boshqa dasturlarning ishlab chiqilishi hamda amalga oshirilishini tashkil etish;
- korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi organlar hamda tashkilot-larning faoliyatini muvofiqlashtirish va hamkorligini ta’minlash;
- aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksal-tirishga, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishga doir chora-tadbirlarning ishlab chiqilishi hamda amalga oshirilishini tashkil etish;
- korrupsiyaga oid huququzarliklarning oldini olishga, ularni aniqlashga, ularga chek qo‘yishga, ularning oqibatlarini, shuningdek ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etishga doir chora-tadbirlar samaradorligi oshirili-shini ta’minlash;
- korrupsiyaning holati va tendensiyalari to‘g‘risidagi axborotni yig‘ish hamda tahlil etish;

- korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha chora-tadbirlar amalga oshirilishi yuzasidan monitoringni amalga oshirish, ushbu sohadagi mavjud tashkiliy-amaliy va huquqiy mexanizmlarning samarador-ligini baholash;
- korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini takomillashtirish va ushbu sohadagi ishlarni yaxshilash yuzasidan takliflar tayyorlash;
- korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha hududiy idoralararo komissiyalar faoliyatini muvofiqlashtirish.

Bizga ma’lumki, bugungi kunda, hokimlar va ularning turli darajadagi xodimlari, boshqa davlat organlarining xodimlari tomonidan korrupsiyaga oid jinoyat sodir etilayotganligi hamda pora bilan qo‘lga tushayoganligi to‘g‘risida ma’lumotlar ommaviy axborot vositalarida berilayotganligi jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashish ishlari davlatning vakolatli organlari tomonida tizimli ravishda izchil borilayotganligini ko‘rsatadi.

Moliya vazirligi tomonidan taqdim etilgan xabarda davlat moliyaviy nazorati bosh boshqarmasi va uning hududiy boshqarmalari tomonidan:

- 2018 yil 3 choragida hukumat va huquqni muhofaza qiluvchi organlarning topshiriqlari hamda jismoniy shaxslarning murojaatlari asosida byudjet tashkilotlarida 1334 ta davlat moliyaviy nazorat tadbirlari o‘tkazilganligi;
- o‘tkazilgan nazorat tadbirlaridan 1111 tasida moliyaviy intizomga rioya qilinmay sarflangan mablag‘lar 16,6 mlrd. so‘mni, shundan kamomad va o‘zlashtirishlar 4,5 mlrd so‘mni, noqonuniy xarajatlar 12,1 mlrd so‘mni tashkil etganligi;
- shuningdek, hisobot davrida byudjet intizomini buzgan byudjet tashkilotlarining 20 nafar rahbar va mansabdor shaxslari 13,9 mln. so‘m miqdorida ma’muriy javobgarlikka tortilganli ma’lum qilingan.

### **Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi organlar hamda tashkilotlar**

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni bevosita amalga oshiruvchi davlat organlari quyidagilardan iborat:

O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi;  
Oldingi tahrirga qarang.  
O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati;  
O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi;  
O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi;  
O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti.

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni qonun hujjatlariga muvofiq boshqa davlat organlari ham amalga oshiradi.

8-modda. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha idoralararo komissiyalar Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi organlar hamda tashkilotlarning faoliyatini muvofiqlashtirish uchun Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha respublika idoralararo komissiyasi (bundan buyon matnda Idoralararo komissiya deb yuritiladi) tashkil etiladi. Idoralararo komissiyani shakllantirish va uning faoliyati tartibi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan belgilanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 2 fevraldaggi PQ-2752-sonli qarori bilan tasdiqlangan Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha respublika idoralararo komissiyasi tarkibi va Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha respublika idoralararo komissiyasi to‘g‘risidagi nizom.

9-modda. O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokururasining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi vakolatlari

O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokururasining o‘z vakolatlari doirasida: korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat dasturlarini va boshqa dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etadi;

korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi qonun hujjatlarining aniq va bir xilda ijro etilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi;

korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi tezkor-qidiruv faoliyatini, tergovga qadar tekshiruvni, surishtiruvni, dastlabki tergovni, shuningdek huquqbazarliklar profilaktikasini amalga oshiruvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtiradi;

korrupsiya bilan bog‘liq jinoyatlar bo‘yicha dastlabki tergovni amalga oshiradi;

korrupsiyaning holati va korrupsiyaga qarshi kurashish natijalari to‘g‘risidagi axborotni yig‘ish hamda tahlil qilishni amalga oshiradi;

jismoniy va yuridik shaxslarning korrupsiya faktlariga doir murojaatlarini ko‘rib chiqadi hamda ularning buzilgan huquqlarini tiklash va qonuniy manfaatlarini himoya qilish choralarini ko‘radi;

korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi qonun ijodkorligi faoliyatida, shu jumladan qonunchilik tashabbusi huquqini amalga oshirishda ishtirok etadi;

aholi o‘rtasida jamiyatda huquqiy ongni, huquqiy madaniyatni yuksaltirishga va qonuniylikni mustahkamlashga qaratilgan huquqiy targ‘ibotga doir faoliyatda ishtirok etadi;

korrupsiyaga oid huquqbazarliklarning o‘z vaqtida oldi olinishini, aniqlanishini va ularga chek qo‘yilishini ta’minlashga, ularning oqibatlarini, shuningdek ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etishga doir tadbirlarni ishlab chiqadi hamda amalga oshiradi;

korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi boshqa organlar hamda tashkilotlar bilan hamkorlik qiladi;

korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida xalqaro hamkorlikni amalga oshiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokururasi qonun hujjalariiga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

10-modda. O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmatining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi vakolatlari

O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati o‘z vakolatlari doirasida:

korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat dasturlarini va boshqa dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etadi;

korrupsiya bilan bog‘liq jinoyatlar bo‘yicha tezkor-qidiruv faoliyatini, tergovga qadar tekshiruvni va dastlabki tergovni amalga oshiradi;

korrupsiyaning holati va korrupsiyaga qarshi kurashish natijalari to‘g‘risidagi axborotni yig‘adi hamda tahlil qiladi, milliy xavfsizlik uchun tahdidlarni baholashni amalga oshiradi, tegishli davlat organlariga zarur axborotni taqdim etadi;

jismoniy va yuridik shaxslarning korrupsiya faktlariga doir murojaatlarini ko‘rib chiqadi hamda ularning buzilgan huquqlarini tiklash va qonuniy manfaatlarini himoya qilish choralarini ko‘radi;

korrupsiyaga oid huquqbazarliklarning o‘z vaqtida oldi olinishini, aniqlanishini va ularga chek qo‘yilishini ta‘minlashga, ularning oqibatlarini, shuningdek ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etishga doir tadbirlarni ishlab chiqadi hamda amalga oshiradi;

korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi boshqa organlar hamda tashkilotlar bilan hamkorlik qiladi;

korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida xalqaro hamkorlikni amalga oshiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

11-modda. O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi vakolatlari. O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi o‘z vakolatlari doirasida:

korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat dasturlarini va boshqa dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etadi;

korrupsiya bilan bog‘liq jinoyatlar bo‘yicha tezkor-qidiruv faoliyatini, tergovga qadar tekshiruvni, surishtiruvni va dastlabki tergovni amalga oshiradi;

korrupsiyaning holati va korrupsiyaga qarshi kurashish natijalari to‘g‘risidagi axborotni yig‘adi hamda tahlil qiladi, tegishli davlat organlariga zarur axborotni taqdim etadi;

jismoniy va yuridik shaxslarning korrupsiya faktlariga doir murojaatlarini ko‘rib chiqadi hamda ularning buzilgan huquqlarini tiklash va qonuniy manfaatlarini himoya qilish choralarini ko‘radi;

aholi o‘rtasida jamiyatda huquqiy ongni, huquqiy madaniyatni yuksaltirishga va qonuniylikni mustahkamlashga qaratilgan huquqiy targ‘ibotga doir faoliyatda ishtirok etadi;

korrupsiyaga oid huquqbazarliklar to‘g‘risidagi statistika ma’lumotlarining hisobi yuritilishini va tahlil qilinishini ta’minlaydi;

korrupsiyaga oid huquqbazarliklarning o‘z vaqtida oldi olinishini, aniqlanishini va ularga chek qo‘yilishini ta’minlashga, ularning oqibatlarini, shuningdek ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etishga doir tadbirlarni ishlab chiqadi hamda amalga oshiradi;

korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi boshqa organlar hamda tashkilotlar bilan hamkorlik qiladi;

korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida xalqaro hamkorlikni amalga oshiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi vakolatlari. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi o‘z vakolatlari doirasida:

korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat dasturlarini va boshqa dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etadi;

korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi qonun ijodkorligi faoliyatida ishtirok etadi;

aholi o‘rtasida jamiyatda huquqiy ongni, huquqiy madaniyatni yuksaltirishga va qonuniylikni mustahkamlashga qaratilgan huquqiy targ‘ibotga doir faoliyatni amalga oshiradi hamda muvofiqlashtiradi;

ta’lim muassasalarida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida huquqiy ta’lim va tarbiyaga doir chora-tadbirlarni amalga oshirishda ishtirok etadi;

normativ-huquqiy hujjatlardagi hamda ularning loyihalaridagi korrupsiya uchun shart-sharoitlar yaratadigan qoidalar va normalarni aniqlash maqsadida ushbu hujjatlar va loyihalarining tahlilini amalga oshiradi;

korrupsiyaga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish bo‘yicha choralar ko‘radi;

korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi boshqa organlar hamda tashkilotlar bilan hamkorlik qiladi;

korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida xalqaro hamkorlikni amalga oshiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokururasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamentining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi vakolatlari. O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokururasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti o‘z vakolatlari doirasida:

korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat dasturlarini va boshqa dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etadi;

jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish bilan bog‘liq jinoyatlar, iqtisodiy va korrupsiya bilan bog‘liq boshqa jinoyatlar bo‘yicha tezkor-qidiruv faoliyatini, tergovga qadar tekshiruvni va surishtiruvni amalga oshiradi;

jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishning ehtimol tutilgan yo‘llari va mexanizmlarini aniqlash uchun pul mablag‘lari yoki boshqa mol-mulk bilan bog‘liq operatsiyalarning monitoringini tashkil etadi hamda o‘tkazadi;

jinoiy ta’qib etishni tashkil qilish va huquqiy ta’sir ko‘rsatishning boshqa choralarini ko‘rish uchun tegishli davlat organlarini korrupsiyaga oid aniqlangan huquqbazarliklar to‘g‘risida o‘z vaqtida xabardor qiladi;

korrupsiyaga oid huquqbazarliklarning o‘z vaqtida oldi olinishini, aniqlanishini va ularga chek qo‘yilishini ta’minlashga, ularning oqibatlarini, shuningdek ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etishga doir tadbirlarni ishlab chiqadi hamda amalga oshiradi;

korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi boshqa organlar hamda tashkilotlar bilan hamkorlik qiladi;

korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida xalqaro hamkorlikni amalga

oshiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

Fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlarining, nodavlat notijorat tashkilotlarining va fuqarolarning korrupsiyaga qarshi kurashishda ishtirok etishi. Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolar:

korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat dasturlarini va boshqa dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etishi;

aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishda, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishda ishtirok etishi;

korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi qonun hujjatlarining ijro etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishi;

korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini takomillashtirish yuzasidan takliflar kiritishi;

korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida davlat organlari va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlik qilishi mumkin.

Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolar qonun hujjatlariga muvofiq boshqa tadbirdarda ham ishtirok etishi mumkin.

Nodavlat notijorat tashkilotlari ushbu moddada nazarda tutilgan tadbirlarni amalga oshirish maqsadida Idoralararo komissiya va hududiy idoralararo komissiyalar faoliyatida, shuningdek davlat organlari huzuridagi ishchi guruhlar, komissiyalar va jamoat-maslahat organlari faoliyatida qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ishtirok etadi.

Ommaviy axborot vositalarining korrupsiyaga qarshi kurashishda ishtirok etishi. Ommaviy axborot vositalari:

korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat dasturlarini va boshqa dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etadi;

korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirishga, shu jumladan aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishga qaratilgan tadbirlarni yoritadi;

korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi qonun hujjatlarining ijro etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshiradi;

korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida davlat organlari va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlik qiladi.

Ommaviy axborot vositalari qonun hujjatlariga muvofiq boshqa tadbirlarda ham ishtirok etishi mumkin.

### **Nazorat savollari:**

1. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha idoralararo komissiyalar.
2. Idoralararo komissiyaning asosiy vazifalari.
3. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiruvchi davlat organlari.
4. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiruvchi davlat organlarining vazifalari.

### **6-Mavzu: Korrupsiyaga qarshi kurash ishlarida fuqarolar hamda fuqarolik jamiyati institutlarining faolligini oshirish mexanizmlari.**

#### **Reja:**

1. Fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlarining korrupsiyaga qarshi kurashishda ishtirok etishi.
2. Nodavlat notijorat tashkilotlarining va fuqarolarning korrupsiyaga qarshi kurashishda faolligini oshirishning ahamiyati.
3. Ta’lim muassasalarida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi huquqiy ta’lim va tarbiyani amalga oshirishning ahamiyati.

2017 yil 2 fevraldagги O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonunning 14-moddasida fuqarolar

o‘zini o‘zi boshqarish organlarining, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolarning korrupsiyaga qarshi kurashishda ishtirok etishi belgilangan bo‘lib, unga muvofiq, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolar:

- korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat dasturlarini va boshqa dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etishi;
- aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishda, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishda ishtirok etishi;
- korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi qonun hujjatlarining ijro etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishi;
- korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi qonun hujjat-larini takomillashtirish yuzasidan takliflar kiritishi;
- korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida davlat organlari va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlik qilishi mumkin.

Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolar qonun hujjatlariga muvofiq boshqa tadbirlarda ham ishtirok etishi mumkin.

Nodavlat notijorat tashkilotlari ushbu moddada nazarda tutilgan tadbirlarni amalga oshirish maqsadida Idoralararo komissiya va hududiy idoralararo komissiyalar faoliyatida, shuningdek davlat organlari huzuridagi ishchi guruhlar, komissiyalar va jamoat-maslahat organlari faoliyatida qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ishtirok etadi.

Ushbu Qonunning 15-moddasiga binoan. ommaviy axborot vositalarining korrupsiyaga qarshi kurashishda ishtirok etishi quyidagi tarzda mustahkamlangan bo‘lib, unga ko‘ra ommaviy axborot vositalari:

- korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat dasturlarini va boshqa dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etadi;
- korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirishga, shu jumladan aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni

shakllantirishga qaratilgan tadbirlarni yoritadi;

- korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi qonun hujjatlarining ijro etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshiradi;

- korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida davlat organlari va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlik qiladi.

Ommaviy axborot vositalari qonun hujjatlariga muvofiq boshqa tadbirlarda ham ishtirok etishi mumkin.

Ekspertlarning fikricha qaysi sohada korrupsiyaga qarshi kurashish chora-tadbirlari tizimli ravishda yo‘lga qo‘yilmagan bo‘lsa, ushbu soha rivojlanmayotganligini ko‘rish mumkin.

Keyingi ikki yilda, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev tomonidan korrupsiya illati yillar davomida tomir otganligi to‘g‘risida o‘zining chiqish va maruzalarida korrupsiyaga qarshi kurashish jamiyat va davlat oldida turgan dolzarb masala ekanligini takror-takror qayd etib kelmoqda.

Shu bois ham, davlatimiz rahbari o‘zining saylov oldi ma’ruzalaridan birida ushbu muammoga alohida e’tibor qaratib, “bugungi kundagi yana bir ustuvor vazifamiz - mamlakatimiz rivojiga to‘siq bo‘layotgan yovuz illat, ya’ni korrupsiya va uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashish, huquqbuzarlikni oldini olish masalalarini samarali hal etishdan iborat” deb ta’kidlagan edi.

“2019 yildan boshlab joriy etilgan yangi soliq konsepsiyasining eng asosiy g‘oyasi soliq yukini kamaytirish, sodda va barqaror soliq tizimini qo‘llashni ko‘zda tutadi. Shu orqali iqtisodiyotimiz raqobatbardoshligini oshirish, tadbirkor va investorlarga uchun har tomonlama qulay muhit yaratishga erishish mumkin. Afsuski, yalpi ichki mahsulotda “yashirin” iqtisodiyotning ulushi katta bo‘lib, bu mamlakat rivojiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Soliq yukini kamaytirish biznes yuritish uchun yanada qulay sharoitlar yaratish “yashirin” iqtisodiyotga barham berishning yagona yo‘lidir. Shuning uchun bu borada ta’sirchan choralarini nazarda tutadigan dastur ishlab chiqishimiz zarur”.

Bizga ma’lumki, soliq stavkalarini pasaytirilishi yoki ayrim soliqlarning bekor qilinishi bilan byudjetga tushadigan tushumlar albatta kamayadi. Bu

masalani soliq ma'murchiligi orqali bartaraf etish mumkin, ya'ni shu vaqtgacha faoliyat yuritayotgan “yashirin” iqtisodiyot jamiyatda qonuniy iqtisodiyotga aylanishi natijasida insofli, halol soliq to'lovchilarni soliq qonunchiligidagi rag'batlan-tirishni huquqiy jihatdan mustahkamlash tadbirkorlar, biznesmen-lar faoliyatini yanada rivojlanishiga hamda yalpi milliy daromadda xususiy mulkning ulushini oshirishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, ko'pchilik xalqaro ekspertlar tomonidan har bir davlat va mamlakatda fuqarolik jamiyati institutlarini rolini mustahkamlash, korrupsiyaga qarshi kurashish va uning oldini olishda fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatini rivojlantirish va ular bilan davlat organlari hamkorligini ta'minlash demokratik huquqiy davlatning asosiy shartlaridan biri ekanligini qayd etadilar.

Biz shuni qayd etishimiz lozimki, ilgari yurtimizda korrupsiya muammosi to'g'risida so'z ochish deyarli mumkin emas edi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish va uni oldini olish davlat va jamiyat oldida turgan eng muhim masala sifatida hal etilishi lozimligi shundan iboratki, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning tarkibiy qismi sifatida mazkur vazifani yechimini topish davlat rahbari tomonidan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Murojaatnomasida ham korrupsiyaga qarshi ta'sirchan mexanizmlarni qo'llash muhimligi qayd etilgan edi.

Mamlakatimizda yurtboshimiz rahbarligida davlatning mazkur illatga qarshi kurashish ishlarini samarali tashkil etish bo'yicha aniq vazifalar belgilangan bo'lib, ularni real hayotga tatbiq qilish uchun tizimli ravishda ishlar davlat organlari tomonidan olib borilayapdi.

Bugungi kunda, xalqaro sub'ektlar hamda jamoat arboblari tomonidan tan olingan mamlakatimizda tizimli ravishda amalga oshirilayotgan islohotlarning yo'l xaritasi hisoblangan Harakatlar strategiyasida mazkur yo'nalishda belgilangan vazifalarini amalga oshirish yuqorida qayd etilgan qonun va qonun ijrosini ta'minlashda fuqarolarning faol ishtirok etishini ta'minlash mamlakatimizda fuqarolik jamiyatni rivojlan-tirishga xizmat qiladi.

Albatta, bugungi shiddat bilan rivojlanayotgan davrda jamiyatda

korrupsiyaga qarshi kurashish va eng muhimi korrupsiyaning oldini olish ishlarini tashkil etishga qaratilgan mazkur maqsadlarni ro‘yobga chiqarish, korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini oshirish, fuqarolik jamiyati institutlari sifatida fuqarolarni o‘zini-o‘zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari-bilan davlat idoralari o‘rtasida hamkorlikni zamon talablari darajasida tashkil etish, huquqiy targ‘ibot samaradorligiga erishish, jamiyat a’zolarining huquqiy bilim va saviyalarini yanada oshirishni yo‘lga qo‘yish korrupsiyani oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarni ijrosini ta’minlashda yaxshi natijalarga erishish mumkin.

Keyingi ikki yilda mamlakatimizda xalqimizning adolat qaror topgan jamiyatda yashashi uchun ma’sul bo‘lgan davlat idoralari o‘z faoliyatlarini bugungi kun talablari asosida tashkil etmoqdalar, ammo, korrupsiyaga qarshi kurashish va uning oldini olish ishlariga har bir fuqarodan ushbu masalaga o‘zining fuqarolik burchi sifatida yondoshib bu ishlarga o‘z hissalarini qo‘sishi lozimligini qayd etish joiz.

Bu ishlarni amalga oshirishda eng muhim masala bizning fikrimizcha yurtdoshlarimizda korrupsiyaga, umuman olganda har qanday ko‘rinishdagi qonunbuzarlikka nisbatan murosasizlik kayfiyatini muntazam ravishda shakllantirish talab etiladi.

Jamiyatda qonunbuzarlikni sodir etilishida ayniqsa korrupsiyaga doir jinoyatlarni sodir etilishida ko‘pincha fuqarolarimizning loqaydligi, o‘z haq-huquqlarini bilmasligi hamda ayrim tadbirkorlik sub’ektlari rahbarlarining yuridik bilimlarini juda past darajada ekanligi ham sabab bo‘lmoqda. Bunga erishish uchun davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlari bu sohada hamkorlikni bugungi kun talablari darajasida tashkil etishi zarur bo‘ladi.

Rivojlangan davlatlarning ijtimoiy, iqtisodiy va huquqiy rivojlanishlaridan bizga ma’lumki, davlat organlari faoliyati ustidan samarali jamoatchilik nazoratini o‘rnatish korruption holatlarni keltirib chiqaruvchi vaziyatlarni oldini olishga xizmat qiladi.

Mamlakatimizda bu sohada ishlarni tashkil qilishda “Ijtimoiy sherikchilik”,

“Jamoatchilik nazorati”, “Nodavlat notijorat tashkilotlari” hamda “Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyati kafolatlari to‘g‘risida”gi qonunlar ijrosini jamiyatda ijrosini ta‘minlashda davlat organlari bilan fuqarolik jamiyatni institutlari hamkorliklarini yanada yuqori bosqichga ko‘tarish orqali u yoki bu mansabdon shaxsnинг faoliyatini xolisona baholash orqali amalga oshirishni yo‘lga qo‘yilishi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, korrupsiyaga qarshi kurashishda davlat organlari bilan nodavlat notijorat tashkilotlari hamda fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari o‘rtasidagi ijtimoiy sheriklikni o‘ziga xos jihatlari va bu sohaning tashkiliy-amaliy xususiyatlari ijtimoiy sheriklik shartnomasida aniq belgilab qo‘yilishi korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarini samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Demokratik huquqiy davlatning asosiy belgilaridan biri birinchidan, bu fuqarolar ustidan bosim o‘tkazish emas, balki, fuqarolarning konstitutsiyada va qonunlarda mustahkamlab qo‘yilgan huquq va manfaatlarini amalga oshirishda ularga yordam berishga xizmat qiladigan fuqarolik jamiyatni institutlarining mavjudligi bo‘lsa, ikkinchidan, jamiyatda ularning faoliyatini samarali ishlashi uchun davlat tomonidan har tomonlama shart-sharoitlar yaratilishi orqali namoyon bo‘ladi.

Bizga ma’lumki, davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirish 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasini beshta ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilab qo‘yilgan.

O‘zbekiston Respublikasining “Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida”gi Qonuning qabul qilinishi va mazkur qonunda fuqarolik jamiyatni institutlari jamoatchilik nazoratining asosiy sub’ektlarining biri sifatida belgilanishi o‘z navbatida fuqarolik jamiyatni institutlari faoliyatini tubdan takomillashtirish asosida rivojlantirish va ularning jamiyatdagi rolini oshirish vazifasini qo‘ydi.

Mazkur vazifalarini amalga oshirishni nazarda tutgan Davlat rahbarining 2018 yil 5 maydagи “Mamlakatni demokratik yangilash jarayonida fuqarolik jamiyatni institutlarining rolini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi maxsus Farmoni qabul qilindi. Mazkur Farmonga muvofiq Prezident huzurida

davlatning va fuqarolik institutlarining mamlakatni yanada jadal har tamonlama rivojlantirishga qaratilgan jamiyatdagi barcha harakatlarni hamda zamonaviy demokratik institutlarni ochiq-oshkora maydon sifatida birlashtiruvchi Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish bo‘yicha Maslahat kengashi tashkil etilganligi ham ushbu masalaning dolzarbligini ko‘rsatadi.

Har bir davlat organi huzurida tashkil etilgan korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha jamoatchilik kengashi faoliyatlarini yanada yuksaltirish uchun mazkur jamoat-chilik kengashi a’zoligiga nodavlat notijorat tashkilotlari vakilari hamda kasaba uyushmasi faollari kiritish orqali har bir sohada korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi qonun hujjat-larining ijrosi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish yaxshi natija berishi mumkin.

Shuningdek, har bir sohada korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha aniq vazifalarni belgilab olinishi mazkur sohalarda korrupsiyani oldini olishga xizmat qiladi.

Har bir davlat organi huzurida korrupsiyaga qarshi kurashish chora-tadbirlarini ishlab chiqish va real hayotga joriy qilishda fuqarolik jamiyatni institutlari bilan hamda boshqa idoralar bilan tizimli hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, kadrlarni tanlash, ayniqsa, rahbar xodimlarni tayinlashda korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi qonun hujjatlari bo‘yicha bilim darajasini testlar orqali o‘rganishni joriy qilish davlat organlari faoliyatida shafoflik va ochiqlikni ta’minlashga olib keladi.

Bizga ma’lumki, mamlakatimizda keyingi ikki yilda davlat organlari bilan fuqarolar o‘rtasidagi muloqatni sustligi chek qo‘yildi, bu esa o‘z navbatida korrupsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan ishlarni rivojlantirishga keng imkoniyatlar yaratdi.

Bugungi kunda, davlat rahbarimiz tomonidan bir qator sohalarda korrupsiyani oldini olishga qaratilgan bir qator qonun hujjatlari qabul qilindi jumladan: “O‘zbekiston Respublikasining davlat xaridlari to‘g‘risida”gi qonuni, ushbu qonun qabul qilinishidan oldin bu sohani 30 ortiq normativ huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinishi oqibatida davlat xaridlarining yaxlit tizimi mavjud emasligi

natijsasida ko‘p bosqichli kelishlar hamda takrorlovchi tartiblar ayrim hollarda korrupsiyaga sharoit yaratilganligini ko‘rish mumkin. Mazkur qonun davlat xaridlari sohasidagi munosabatlarni tartibga solish, davlat xaridlari ochiqligi hamda shafofligini ta’minlash orqali bu sohada korrupsiyani oldini olishga xizmat qilishi bilan muhim ahamiyat kasb etadi.

### **Nazorat savollari:**

1. Fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlarining korrupsiyaga qarshi kurashishda ishtirot etishi.
2. Nodavlat notijorat tashkilotlarining va fuqarolarning korrupsiyaga qarshi kurashishda faolligini oshirishning ahamiyati.
3. Ta’lim muassasalarida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi huquqiy ta’lim amalga oshirishning ahamiyati.
4. Korrupsiyaga qarshi kurashishda tarbiyaning roli va o‘rni.

**7-Mavzu: “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora – tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonida belgilangan vazifalari (27.05.2019). O‘zbekiston milliy taraqqiyotining yangi bosqichida korrupsiyaga qarshi kurashdagi natijalari va ularning ahamiyati.**

### **Reja:**

1. Aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish.
2. Davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida korrupsiyaning oldini olish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish.
3. Korrupsiyaga oid huquqbazarliklarni o‘z vaqtida aniqlash, ularga chek qo‘yish, imkoniyat yaratuvchi sabablar, shart-sharoitlar va oqibatlarini bartaraf etish, korrupsiyaga oid huquqbazarliklarni sodir etganlik uchun javobgarlikning muqarrarligi prinsipini ta’minlash.

Hozirgi globallashuv zamoni, mintaqalar va davlatlararo integratsiya

jadallahib borayotgan murakkab bir sharoitda korrupsiya barcha mamlakatlarda ham qator muammolarni keltirib chiqarib, jamiyatni ich-ichidan yemirib, parokanda qilib tashlash xavfini solmoqda. Binobarin, bugun kattami-kichikmi, boymi-kambag‘almi, qudratlimi-kuchsizmi bironta davlatni korrupsiyadan xoli hudud, deb aytolmaymiz. BMT va Xalqaro valyuta jamg‘armasining ma’lumotlariga ko‘ra, jahon iqtisodiyoti korrupsiya tufayli yiliga 1,5-2,6 trillion dollargacha zarar ko‘rmoqda.

“O‘zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi Farmon bu boradagi izchil sa’y-harakatlarning mantiqiy davomi bo‘lib, bundan ko‘zlangan asosiy maqsad yurtimizda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi samaradorligini yanada oshirish, eng yuqori darajadagi qulay investisiyaviy va ishbilarmonlik muhitini yaratish, mamlakatning xalqaro maydondagi ijobiy imijini oshirish va mustahkamlashga qaratilgan.

Mazkur Farmon bilan 2019—2020 yillarda korrupsiyaga qarshi kurashish davlat dasturi qabul qilinib, Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha respublika idoralararo komissiyasining yangilangan tarkibi tasdiqlandi.

Farmon bilan qabul qilingan 2019-2020 yillarda korrupsiyaga qarshi kurashish Davlat dasturining “Aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish” deb nomlangan yo‘nalishida belgilangan chora-tadbirlarni amalga oshirishda “Taraqqiyot strategiyasi” markazi ham qator tashkilotlar hamkorligida ishtirok etishi belgilandi. Xususan:

- sodir etilayotgan korrupsiyaga oid jinoyatlarning o‘ziga xos sxemasini o‘rganish asosida korrupsiyaning tipologiyasini tuzish;
- korrupsiyaga moyil bo‘lgan sohalarni aniqlash asosida tarmoqlar kesimida korrupsiyaga oid xaritalarni tuzish;
- korrupsiyaga oid huquqbazarliklar sodir etilishining shart-sharoitlari va sabablarini o‘rganish, shuningdek ularni bartaraf etish takliflarini ishlab chiqish;
- korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida qabul qilinayotgan chora-tadbirlarning samaradorligini baholash;

— korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida ta’lim va tadqiqot muassasalari ilmiy xodimlariga, shu jumladan, xalqaro tashkilotlardan korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida tadqiqotlar o’tkazish bo‘yicha grantlar jalb qilish orqali ko‘maklashish;

— korrupsiya darajasi, korrupsiyani idrok etish va shaxsiy tajribasi, shuningdek, davlat hokimiysi institutlariga ishonch va korrupsiyaga qarshi choralarning ta’siri darajasini baholash maqsadida jamoatchilik fikrini o‘rganish bo‘yicha tadqiqotlarni tashkil qilish nazarda tutilmoxda.

Korrupsiyaga olib keluvchi tub sabablarni aniq tahlil qilish, korrupsiya ildiz otishi mumkin bo‘lgan sohalar haqida aholi va mansabdor shaxslarni muntazam ogoh etib borish, aholi, ayniqsa, yoshlarning huquqiy savodxonligini oshirish, ular orasida korrupsiyaga qarshi kurashish madaniyatini shakllantirish asosiy vazifa sanaladi. O‘z navbatida, aholining turli qatlamlari orasida, shuningdek, davlat organlari va tadbirkorlarning yuzma yuz uchrashuvlarini, ochiq muloqotlarini o’tkazish, xorijiy davlatlarning korrupsiyaga qarshi samarali kurashish tajribasini o‘rganib, maqbul jihatlarini o‘zimizda tadbiq etish, bu yo‘nalishda chuqr tahliliy tadqiqot ishlarini yo‘lga qo‘yish hamda ularning natijalariga tayangan holda korrupsiyaga qarshi kurashishning samarali usullarini ishlab chiqib, tegishli takliflarni tayyorlash va mutasaddi idoralarga taqdim qilish asosiy vazifalardan biridir.

Darhaqiqat, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish bugungi kunda nihoyatda dolzarb masala bo‘lib, bu borada nafaqat mas’ul idoralar, balki keng jamoatchilik ham hamjihat va hamfikr bo‘lmog‘i maqsadga muvofiqdir. Shundan kelib chiqib, qaerdadir ta’magirlik, poraxo‘rlik holatlariga duch kelsak, har birimiz bu noxush hodisaga nisbatan befarq bo‘lmasligimiz, loqaydlik qilmasligimiz, aksincha, korrupsiya illatini tag tomiri bilan quritishga qaratilgan sa’y-harakatlarni vijdonan bajarishga kirishmog‘imiz burch va mas’uliyatimizga aylanmog‘i darkor. Boshqacha ifodalaganda, adolatsizlikka nisbatan murosasiz bo‘lishni o‘zimizdan boshlashimiz zarur. Zero, bu borada har bir fuqaroning huquqi qonuniy asosda qat’iy kafolatlangan. Ya’ni,

"Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida"gi Qonunda jismoniy va yuridik shaxslarning korrupsiyaga oid huquqbazarlik faktlariga doir murojaatlari to‘liq, xolisona va o‘z vaqtida ko‘rib chiqilishi, korrupsiyaga oid huquqbazarliklar to‘g‘risida axborot bergen shaxslar himoya qilinishi belgilab qo‘yilgan.

Prezident Shavkat Mirziyoev **2019 yil 27 may kuni** O‘zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risidagi farmonni imzoladi. Hujjat korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi samaradorligini oshirish, eng yuqori darajadagi qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish, mamlakatning xalqaro maydondagi ijobiy obro‘-e’tiborini oshirishga qaratilgan.

Farmon bilan 2019–2020 yillarda korrupsiyaga qarshi kurashish davlat dasturi qabul qilindi va Senat raisi Nig‘matulla Yo‘ldoshev boshchiligidagi Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha respublika idoralalararo komissiyasining yangilangan tarkibi tasdiqlandi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, viloyatlar va Toshkent shahar xalq deputatlari Kengashlari, tuman va shahar xalq deputatlari Kengashlarining tarkibida korrupsiyaga qarshi kurashish komissiyalari tashkil etiladi. Ular joylarda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagiishlarning holatini kompleks o‘rganish, joylarda korrupsiya ko‘rinishlari namoyon bo‘lishiga olib keladigan tizimli muammolar va korrupsiyaning holati to‘g‘risida O‘zbekiston Oliy Majlisi palatalarining korrupsiyaga qarshi kurashish va sud-huquq masalalari bo‘yicha qo‘mitalariga ushbu sohadagi faoliyatni takomillashtirish yuzasidan takliflar kiritgan holda muntazam ravishda axborot berib boradi.

Farmonda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari o‘rta muddatli istiqbolda quyidagilardan iborat ekani belgilandi:

sud hokimiyatining mustaqilligini yanada mustahkamlash, sudyalarga har qanday tarzda qonunga xilof ravishda ta’sir o‘tkazish shart-sharoitlarini istisno etish;

davlat xizmatchilarini tanlov asosida saralab olish, lavozimga tayinlash va yuqori lavozimlarga ko‘tarishning shaffof tartibiga asoslangan davlat xizmati

tizimini shakllantirish, ular uchun cheklovlari, taqiqlashlar, rag‘batlantirish choralari hamda korrupsiyaning oldini olish boshqa mexanizmlarining aniq ro‘yxatini belgilash;

davlat xizmatchilari daromadlarini deklaratsiya qilish tizimini bosqichma-bosqich joriy etish va ularning ish haqi yetarli darajada bo‘lishini ta’minlash, shuningdek, davlat xizmatini o‘tashda manfaatlar to‘qnashuvini hal etishning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish;

korrupsiya bilan bog‘liq huquqbuzarliklar to‘g‘risida xabar bergan shaxslarni himoya qilishning samarali tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini joriy etish;

aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yanada oshirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni kuchaytirish;

davlat organlari va tashkilotlarining hisobdorligi va faoliyatining shaffofligini oshirish;

fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari faoliyatining chinakam erkinligini ta’minlash va ularni korrupsiyaga qarshi choralarni tayyorlash, o‘tkazishda va ijrosini monitoring qilishda ishtirok etishga jalb qilish.

Idoraviy korrupsiyaga qarshi kurashishning samarali dasturlarini amalga oshirish, ularning hisobdorligi va faoliyatining ochiqligi mexanizmlarini joriy etish, odob-axloq qoidalariga rioya etilishi va manfaatlar to‘qnashuvining oldi olinishini ta’minlash bo‘yicha amaliy chora-tadbirlarni bajarish orqali tegishli sohada korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarga imkon yaratayotgan sabablar va shart-sharoitlarni tag-tomiri bilan yo‘qotish davlat organlari va tashkilotlari rahbarlarining birinchi darajadagi muhim vazifasi hisoblanadi.

2019 yil 1 iyuldan boshlab davlat organlari zimmaga yuklangan vazifa va funksiyalarni amalga oshirishda yuzaga keladigan korrupsiya xavf-xatarlarini vaqtı-vaqtı bilan majburiy baholab boradi, uning yakunlari bo‘yicha:

korrupsiya xavf-xatariga eng ko‘p duch keladigan davlat xizmatchilarining faoliyat sohalari va lavozimlari, shuningdek, ularning funksiyalari (vakolatlari)ning ro‘yxatini shakllantiradi;

idoraviy korrupsiyaga qarshi kurashish dasturlari ijrosining har choraklik monitoringini amalga oshiradi va korrupsiyaviy xavf-xatarlarni minimum darajaga tushirish choralarini ko‘radi;

Idoralararo komissiya bilan kelishgan holda har yilgi idoraviy korrupsiyaga qarshi kurashish dasturlarini tasdiqlaydi;

har yili Idoralararo komissiyaga tegishli organlar va tashkilotlar faoliyatida, shu jumladan, qonunchilikni va huquqni qo‘llash amaliyotini takomillashtirish orqali korrupsiya xavf-xatarlariga barham berish bo‘yicha takliflarni kiritadi.

Davlat boshqaruvi organlari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlari korrupsiya xavf-xatarlarini o‘z vaqtida aniqlamaganliklari va tegishli baho bermaganliklari, shuningdek, korrupsiyaga oid huquqbazarliklarni takroran sodir etish holatlariga yo‘l qo‘yganliklari yuzasidan shaxsan javobgar bo‘ladi.

1 sentyabrdan boshlab ta’lim muassasalarida yoshlarga korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida huquqiy ta’lim berish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar tatbiq etilishi lozim. Bundan tashqari, umumiyligi o‘rtacha, o‘rtacha maxsus, kasb-hunar ta’limi va oliy ta’lim muassasalarining o‘quv dasturlarida korrupsiyaga qarshi mavzular yanada kuchaytiriladi.

Uch oy muddatda, shu jumladan, texnik infratuzilmani va zarur dasturiy ta’mintoni yaratishga oid zaruriy chora-tadbirlarni amalga oshirishni nazarda tutgan holda muayyan toifadagi davlat xizmatchilarining mulki va daromadlarini deklaratsiya qilish tizimini bosqichma-bosqich joriy etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilishi lozim.

2019 yil 1 avgustdan boshlab eksperiment tariqasida, jamoatchilik va yetakchi ekspertlarni, shu jumladan, xorijiy ekspertlarni jalb etgan holda dastlabki bosqichda kapital qurilish va oliy ta’lim sohalarida «Korrupsiyasiz soha» loyihasi amalga oshiriladi. 2020 yil 1 apreldan boshlab loyiha boshqa sohalarga ham bosqichma-bosqich joriy etiladi.

Qo‘shimcha ravishda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida jamoatchilik nazorati mexanizmlarini samarali qo‘llashga yo‘naltirilgan «Yo‘l xaritasi» loyihasi ishlab chiqiladi. Unda Oliy Majlis palatalari va siyosiy partiyalarning rolini yanada

kuchaytirish, huquqni muhofaza qiluvchi organlarning Oliy Majlis palatalari oldidagi hisobdorligi tartibini takomillashtirish, qarorlar qabul qilish jarayonida fuqarolar ishtirokining shaffof va samarali usullarini joriy etish ko‘zda tutilgan.

**Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi** (keyingi o‘rinlarda – Agentlik) maxsus vakolatli organ bo‘lib, korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasida davlat siyosatini shakllantirish va amalga oshirish uchun mas’ul organ hisoblanadi. Agentlik Prezidentga bo‘ysunadi va Oliy Majlis palatalari oldida hisobdordir.

Uning asosiy vazifalari va faoliyat yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

mamlakatda korrupsiya holatini tizimli tahlil qilishni ta’minalash;

korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasida davlat siyosatini hamda korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning tizimli sabab va shartsharoitlarini bartaraf etish, korrupsiyaga qarshi kurashish choralarining samaradorligini oshirishga qaratilgan davlat va boshqa dasturlarni shakllantirish va amalga oshirish;

jamiyatda korrupsiyaning barcha ko‘rinishlariga murosasiz munosabatni shakllantirish;

vazirlik va idoralarning korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtirish, davlat organlari, OAV, fuqarolik jamiyati institutlari va boshqa nodavlat sektor vakillarining ushbu masalalar bo‘yicha birgalikdagi samarali faoliyatini tashkil etish;

davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tizimi («komplaens-nazorat») hamda korrupsiyaga qarshi kurashishning boshqa xalqaro vositalarini joriy etish va samarali faoliyat ko‘rsatishini tashkillashtirish;

NHH va ularning loyihalarini korrupsiyaga qarshi ekspertizasi samaradorligini ta’minalash, shuningdek korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasidagi qonunchilikni takomillashtirish;

davlat xizmatchilarining daromad va mol-mulkini deklaratsiya qilish tizimi joriy etilishi va samarali faoliyat ko‘rsatishini hamda ushbu jarayonda aniqlangan korrupsiya holatlariga o‘z vaqtida ta’sir choralarini ko‘rinishini ta’minalash;

davlat xizmatiga halollik standarti («halollik vaksinasi») va manfaatlar to‘qnashuvini hal etish standartlarini joriy etishda ko‘maklashish bo‘yicha ta’sirchan choralarni ko‘rish;

byudjet mablag‘lari, xalqaro tashkilotlar va xorijiy davlatlarning qarzlaridan foydalanish va davlat xaridlari sohasida korrupsiyaga qarshi nazorat tizimining samaradorligini tahlil qilish;

korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish;

korrupsiyaning holati, tendensiyalari va sabablari hamda korrupsiyaga qarshi choralar ko‘rishning samaradorligi yuzasidan sotsiologik, ilmiy va boshqa tadqiqotlarni tashkil etish, korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashishning ta’sirchanligini oshirish bo‘yicha takliflarni ishlab chiqish;

korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatning ochiqligi va shaffofigini ta’minlash.

Agentlik har yili Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida milliy ma’ruzani tayyorlaydi. Hujjat OAVda e’lon qilinadi va ko‘rib chiqish uchun Prezident va Oliy Majlisga kiritiladi.

Agentlik quyidagilarga vakolatli hisoblanadi:

byudjet mablag‘larining sarflanishi, davlat aktivlarining realizatsiya qilinishi, davlat xaridlari, investisiya loyihalarining amalga oshirilishi va davlat dasturlari bajarilishi bilan bog‘liq materiallarni talab qilish, olish va o‘rganish;

o‘z vakolatiga taalluqli masalalar yuzasidan NHH qabul qilish;

jismoniy va yuridik shaxslarning korrupsiya masalalari bo‘yicha murojaatlarini ko‘rib chiqish hamda ularning buzilgan huquqlarini tiklash va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha choralar ko‘rish;

davlat organlari va tashkilotlari faoliyatida korrupsiya holatini o‘rganish;

korrupsiyaga oid jinoyatlar sodir etilishining sabab va shart-sharoitlarini aniqlash, tizimli korrupsiyaning rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilish maqsadida qonunchilikka muvofiq jinoyat ishlari materiallarni o‘rganish;

o‘rganish va boshqa tadbirlar natijalari bo‘yicha to‘plangan materiallarni

huquqni muhofaza qiluvchi va boshqa davlat organlariga taqdim etish;

korrupsiyaga oid huquqbazarliklar bo‘yicha ma’muriy surishtiruvlar o‘tkazish;

ijro hokimiyati va xo‘jalik boshqaruvi organlari hamda ularning mansabdar shaxslari qarorlarida korrupsiya belgilari aniqlangan hollarda ularning ijrosini to‘xtatish yoki bekor qilish to‘g‘risida ko‘rib chiqilishi majburiy bo‘lgan taqdimnomalarni kiritish;

davlat organlari, tashkilotlari va ularning mansabdar shaxslariga korrupsiyaga oid huquqbazarlikka yo‘l qo‘ymaslik to‘g‘risida ogohlantirishlar hamda korrupsiyani keltirib chiqaruvchi sabab va shart-sharoitlarni bartaraf etish choralarini ko‘rish to‘g‘risida taqdimnomalar kiritish.

Agentlikning ogohlantirish, taqdimnoma va murojaatlari ko‘rib chiqilishi shart. Ko‘rib chiqish natijalari yuzasidan 10 kun ichida yozma axborot berilishi lozim.

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha respublika idoralararo komissiyasi va uning hududiy bo‘linmalar O‘zbekiston Respublikasi korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi va uning hududiy kengashlari etib qayta tashkil etiladi. Agentlik Milliy kengashning ishchi organi etib belgilanadi.

Agentlik direktori maqomi, mehnatga haq to‘lash shartlari, tibbiy va transport xizmati ko‘rsatish shartlari bo‘yicha vazirga, uning o‘rinbosarlari esa vazir o‘rinbosarlariga tenglashtiriladi. Qolgan xodimlar mehnatiga haq to‘lash shartlari va mehnat haqi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligidagi singari bo‘ladi (bu yerda qarang). Idora boshqaruv xodimlarining cheklangan soni 50 shtat birligi miqdorida belgilanadi, Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi (10 ta) hamda Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamentining (40 ta) shtat birliklarini qisqartirish hisobiga shakllantiriladi.

Agentlikka xalqaro standartlar bo‘yicha tanlov asosida ishga qabul qilinadi. Xodimlarga egallagan lavozimi va ish stajiga muvofiq va mavjud bo‘lganda, avvalgi ish joyida berilgan – harbiy va maxsus unvonlar (martaba darajalari, malaka toifalari, diplomatik martabalar) hisobga olingan holda martaba darajalari

beriladi. Agentlikka birinchi marta ishga qabul qilinayotganlar Bosh prokuratura Akademiyasida maxsus ta’lim dasturlari bo‘yicha ishdan ajralgan holda o‘qitiladi.

Farmonda quyidagilar nazarda tutilgan:

2020–2021 yillarda barcha davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlarida korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tizimini («komplaens-nazorat») bosqichma-bosqich joriy etish;

davlat hokimiysi va boshqaruvi organlarining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi faoliyati, shuningdek ushbu sohadagi davlat va boshqa dasturlar samaradorligini monitoring qilish hamda baholash imkonini beruvchi «E-Anticor.uz» elektron platformasini joriy etish;

korrupsiya holatlari haqida Agentlikni xabardor qilish imkonini beruvchi maxsus mobil dasturiy ta’minotni joriy etish.

Hujjat Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasida e’lon qilingan va 30.06.2020 yildan kuchga kirdi.

### **Nazorat savollari:**

1. Aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish zarurligi.
2. Davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida korrupsiyaning oldini olish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish masalalari.
3. Korrupsiyaga oid huquqbazarliklarni o‘z vaqtida aniqlash, ularga chek qo‘yish, imkoniyat yaratuvchi sabablar, shart-sharoitlar va oqibatlarini bartaraf etish, korrupsiyaga oid huquqbazarliklarni sodir etganlik uchun javobgarlikning muqarrarligi prinsipini ta’minlash masalasi.
4. Korrupsiyaga qarshi kurashish Agentligining vazifalari.

## **IV. AMALIY MASHG‘ULOTLARINING MAZMUNI**

### **1-Mavzu: Korrupsiya va unga qarshi kurash tushunchasi.**

#### **Reja:**

1. Korrupsiya tushunchasi va atamasi.
2. Korrupsiyaning tarixiy ildizlari va kelib chiqishi.

#### **Amaliy mashg‘ulotning maqsadi:**

- Korrupsiya tushunchasi va atamasini ochib berish.
- Korrupsiyaning tarixiy ildizlari va kelib chiqishini o‘rganish
- Korrupsiyaga qarshi kurash borasida O‘zbekiston Respublikasi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari tahlil etish.

#### **Amaliy mashg‘ulotning vazifalari:**

- yangi pedagogik texnologiyalar (“Klaster”, “Venn diagrammalar”) yoki interaktiv usullardan foydalangan holda tayyorlanadi.
- amaliy mashg‘ulot uchun material - aniq topshiriq (“Keys topshiriqlari”), topshiriqni bajarish uchun tegishli ko‘rsatma va tavsiyalar, ijodiy ishlanmalar (referat, esse)dan iborat dasturlar asosida tashkil etiladi.

### **2-Mavzu: Korrupsiyaga qarshi kurash borasida xalqaro huquqiy hujjatlar.**

#### **Reja:**

1. Korrupsiyaga qarshi kurashning huquqiy asoslari.
2. Korrupsiyaga qarshi qaratilgan yuqori samarali chora tadbirlarni qabul qilish va mustahkamlash.

#### **Amaliy mashg‘ulotning maqsadi:**

- Korrupsiyaga qarshi kurashning huquqiy asoslarini o‘rganish.
- Korrupsiyaga qarshi qaratilgan yuqori samarali chora tadbirlarni ochib berish.
- Korrupsiyaga qarshi kurashda halqaro hamkorlikning ahamiyati va o‘rnini ahvil etish.

#### **Amaliy mashg‘ulotning vazifalari:**

- yangi pedagogik texnologiyalar (“Klaster”, “Venn diagrammalar”) yoki interaktiv usullardan foydalangan holda tayyorlanadi.
- amaliy mashg‘ulot uchun material - aniq topshiriq (“Keys topshiriqlari”), topshiriqni bajarish uchun tegishli ko‘rsatma va tavsiyalar, ijodiy ishlanmalar (referat, esse)dan iborat dasturlar asosida tashkil etiladi.

**3-Mavzu: 2008 yil iyul oyida O‘zbekiston Respublikasini BMTning  
Korrupsiyaga qarshi kurash konvensiyasiga qo‘shilishi.**

**Reja:**

1. BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiya mazmuni va mohiyati.
2. Korrupsiyaning turlari va shakllari.
3. Korrupsiyaga qarshi kurashish borasida nazorat tizimlari hamda O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi mansabдор shaxslarning korrupsiyaviy jinoyatlar uchun javobgarligi.

**Amaliy mashg‘ulotning maqsadi:**

- BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiya mazmuni va mohiyati olib berish
- Korrupsiyaning turlari va shakllarini tahlil etish.
- Korrupsiyaga qarshi kurashish borasida nazorat tizimlari hamda O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi mansabдор shaxslarning korrupsiyaviy jinoyatlar uchun javobgarlikni o‘rganish.

**Amaliy mashg‘ulotning vazifalari:**

- yangi pedagogik texnologiyalar (“Klaster”, “Venn diagrammalar”) yoki interaktiv usullardan foydalangan holda tayyorlanadi.
- amaliy mashg‘ulot uchun material - aniq topshiriq (“Keys topshiriqlari”), topshiriqni bajarish uchun tegishli ko‘rsatma va tavsiyalar, ijodiy ishlanmalar (referat, esse)dan iborat dasturlar asosida tashkil etiladi.

**4-Mavzu: O‘zbekiston Respublikasi “Korrupsiyaga qarshi kurashish  
to‘g‘risida”gi qonuni va qarorda belgilangan vazifalar.**

**Reja:**

1. Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi qonun hujjatlari.
2. Korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy prinsiplari.
3. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiruvchi davlat organlari.

**Amaliy mashg‘ulotning maqsadi:**

- Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini o‘rganish
- Korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy prinsiplari tahlil qilish.
- Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha davlat organlari faoliyatini o‘rganish.

**Amaliy mashg‘ulotning vazifalari:**

- yangi pedagogik texnologiyalar (“Klaster”, “Venn diagrammalar”) yoki interaktiv usullardan foydalangan holda tayyorlanadi.
- amaliy mashg‘ulot uchun material - aniq topshiriq (“Keys topshiriqlari”), topshiriqni bajarish uchun tegishli ko‘rsatma va tavsiyalar, ijodiy ishlanmalar (referat, esse)dan iborat dasturlar asosida tashkil etiladi.

**5-Mavzu: Korrupsiyaga qarshi kurash sub’ektlari va idoralararo komissiyaning asosiy vazifalari.**

**Reja:**

1. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha idoralararo komissiyalar.
2. Idoralararo komissiyaning asosiy vazifalari.

**Amaliy mashg‘ulotning maqsadi:**

- Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha idoralararo komissiyalar mohiyatini ochib berish.
- Idoralararo komissiyaning asosiy vazifalarini o‘rganish

**Amaliy mashg‘ulotning vazifalari:**

- yangi pedagogik texnologiyalar (“Klaster”, “Venn diagrammalar”) yoki interaktiv usullardan foydalangan holda tayyorlanadi.

- amaliy mashg‘ulot uchun material - aniq topshiriq (“Keys topshiriqlari”), topshiriqni bajarish uchun tegishli ko‘rsatma va tavsiyalar, ijodiy ishlanmalar (referat, esse)dan iborat dasturlar asosida tashkil etiladi.

**6-Mavzu: “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora – tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonida belgilangan vazifalari (27.05.2019). O‘zbekiston milliy taraqqiyotining yangi bosqichida korrupsiyaga qarshi kurashdagi natijalari va ularning ahamiyati.**

**Reja:**

1. Korrupsiyaning xavf-xatarlarini tahlil qilish asosida, aholining keng qatlamlarini xabardor qilish va ong-bilimlarini oshirishda maqsadli tadbirlarni amalga oshirish.
2. Yoshlarda korrupsiyaga qarshi kurashish faol dunyoqarash va mustahkam fuqarolik nuqtai nazarini shakllantiradigan chora-tadbirlarni amalga oshirish.
3. Korrupsiya bilan bog‘liq jinoyatlar haqida xabar bergan shaxslarni himoya qilishning taskiliy-huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish.

**Amaliy mashg‘ulotning maqsadi:**

- Korrupsiyaning xavf-xatarlarini tahlil qilish asosida, aholining keng qatlamlarini xabardor qilish va ong-bilimlarini oshirishda maqsadli tadbirlarni amalga oshirishni tahlil etish.
- Yoshlarda korrupsiyaga qarshi kurashish faol dunyoqarash va mustahkam fuqarolik nuqtai nazarini shakllantiradigan chora-tadbirlarni amalga oshirishni ochib berish.
- Korrupsiya bilan bog‘liq jinoyatlar haqida xabar bergan shaxslarni himoya qilishning taskiliy-huquqiy mexanizmlarini tahlil qilish.

**Amaliy mashg‘ulotning vazifalari:**

- yangi pedagogik texnologiyalar (“Klaster”, “Venn diagrammalar”) yoki interaktiv usullardan foydalangan holda tayyorlanadi.

- amaliy mashg‘ulot uchun material - aniq topshiriq (“Keys topshiriqlari”), topshiriqni bajarish uchun tegishli ko‘rsatma va tavsiyalar, ijodiy ishlanmalar (referat, esse)dan iborat dasturlar asosida tashkil etiladi.

## V. GLOSSARY

<b>Termin</b>	<b>O‘zbek tilidagi sharhi</b>	<b>Ingliz tilidagi sharhi</b>
<b>AXLOQIY KORRUPSIYa -</b>	bu davlat, yoki mahalliy hokimiyat organi mansabдор shaxsining shaxsiy ta’siri vositasida o‘z mansab vakolatini suiiste’mol qilishi.	ETHICAL CORRUPTION is the abuse of one’s official authority through the personal influence of an official of a state or local authority.
<b>AHOLINI KORRUPSIYaLASHISH DARAJASI -</b>	ma’lum bir aholi soniga to‘g’ri keladigan (odatda 100 ming kishi) korrupsiya holatlari, (korrupsiyalashish koeffisienti), fuqarolarning korrupsiyaviy faolligi (korrupsiya faolligi indeksi) va uning davriyligi kabi ko‘rsatkichlarda ifodalananadigan aholini korrupsiyaga oid huquqbazarlikka moyillik miqdori.	LEVEL OF CORRUPTION OF THE POPULATION - the right of the population to corruption, expressed in indicators such as the number of cases of corruption per capita (usually 100 thousand people), corruption activity (corruption activity index) and its periodicity.
<b>BIZNESDAGI KORRUPSIYa -</b>	xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar, tijorat tashkilotlarida sodir etiladigan korrupsiyaga oid xattiharakatlar.	CORRUPTION IN BUSINESS - actions related to corruption in business entities and commercial organizations.
<b>BIZNESNI EGALLAB OLISH -</b>	korrupsiyaning bir ko‘rinishi bo‘lib, bunda, mansabдор shaxslar tomonidan muntazam ravishda daromad olish maqsadida xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar faoliyati ustidan o‘z nazoratini o‘rnatadilar.	BUSINESS OCCUPATION is a form of corruption in which officials exercise control over the activities of business entities in order to generate regular income.
<b>BYuROKRATIK PROTEKSIONIZM -</b>	jamoat idoralari va mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlarida uyushgan yoki bir guruhning g‘arazli manfaatlarini amalga oshirish uchun shakllangan mansabдор shaxslarning norasmiy	BUREAUCRATIC PROTECTIONISM is an informal structure of officials (“own team”) organized in public institutions and local self-

	tuzilmasi ( “o‘z jamoasi»).	government bodies or formed to pursue the selfish interests of a group.
<b>VAKOLATNI SUISTE'MOL QILIB OLINGAN FOYDA (AFZALLIK) -</b>	mansab vakolatidan foydalanib olingan mulk, xizmat yoki imtiyoz shaklida, shuningdek, mulkiy va mulkiy bo‘lmagan boshqa har qanday foyda (afzallik).	BENEFITS FROM THE ABUSE OF POWER (ADVANTAGE) - in the form of property, services or privileges obtained from the exercise of official authority, as well as any other property (non-property) benefits (advantages).
<b>VERTIKAL KORRUPSIYa -</b>	bu atama ikki ma’noda ishlatiladi. Birinchidan, yuridik va jismoniy shaxslardan olingan noqonuniy mukofotning bir qismini yuqori darajadagi mansabdor shaxslarga o‘z xavfsizligini ta’minalash va korrupsiya faoliyatini davom ettirish uchun berib borishdir.	VERTICAL CORRUPTION - this term is used in two senses. The first is to give part of the illegal reward received from legal entities and individuals to high-ranking officials to ensure their safety and to continue their corrupt activities.
<b>VIKTIMOLOGIK -</b>	victimologik holatlar bilan bog‘liq korrupsiya jinoyatlari va ushbu toifadagi korrupsiya jinoyatlari qurbanlarini himoya qilish hamda uni keltirib chiqaruvchi omillarni oldini olish, bartaraf etishga yo‘naltirilgan tadbirlar	VICTIMOLOGICAL - measures aimed at protecting victims of corruption-related crimes and victims of this category of corruption, as well as the prevention and elimination of its causes
<b>VIKTIMOLOGIYa</b>	- (lotincha “victima” – jabrdiyda, "logos" – fan ma’nosini anglatadi) shaxsning viktimologik xususiyatlari (jinoyatchilikga qarshi kurashishga qodir bo‘lmaganligi, kmsuqumligi, soddaligi, o‘ta ishonuvchanligi kabilar) sababli jinoyat qurbaniga aylanishini o‘rganadigan fan	VICTIMOLOGY - (Latin "victima" - victim, "logos" - science) is a branch of science that studies the development of a person as a victim of crime due to the victimological features (inability to fight crime, inferiority, simplicity,

	yo‘nalishi.	overconfidence, etc.).
<b>GORIZONTAL KORRUPSIYa -</b>	turli idoralarning bir xil darajadagi rasmiy bir-birlari bilan o‘zaro va xizmat bo‘yicha bog‘liq bo‘lmagan mansabdor shaxslari o‘rtasidagi korrupsiyaviy munosabatlar.	HORIZONTAL CORRUPTION is a corrupt relationship between officials of different agencies at the same level of official interaction with each other and unrelated to the service.
<b>DAVLAT LAVOZIMIGA SAYLANADIGAN NOMZODNI PORA EVAZIGA OG‘DIRISH</b>	- huquqiy maqomiga zid bo‘lgan xatti-harakatlarni amalga oshirish, ya’ni o‘z nomzodidan voz kechish uchun tanlangan nomzodni mulkiy manfaatdor qilish yoki unga shu to‘g‘risida va’da berish. Masalan, saylov jarayonidan o‘z nomzodini qaytarib olish yoki saylovoldi tashviqoti faoliyatini susaytirish	TRANSFERRING A CANDIDATE ELECTED TO A PUBLIC POSITION FOR A BRIBE is to commit an act contrary to his legal status, that is, to make a property interest or promise to a candidate chosen to renounce his candidacy. For example, withdrawing a candidate from the election process or weakening the campaign
<b>DAVLAT LAVOZIMINI SOTIB OLISH -</b>	sub’ekt tomonidan ma’lum bir davlat lavozimini boshqa mansabdor shaxsga pul, molumk yoki mulkiy manfaatlarni va’da qilish yoki berish yo‘li bilan egallashi	PURCHASE OF A GOVERNMENT POSITION - an entity occupies a certain public position by promising or giving money, property or property interests to another official
<b>DAVLAT TIZIMIDAGI KORRUPSIYa -</b>	davlat funksiyalarini bajarishga vakolatli shaxslar (hukumat vakillari)ning o‘z vakolatlaridan pora evaziga g‘arazli maqsadlarda foydalanishga oid jinoiy faoliyati.	CORRUPTION IN THE STATE SYSTEM is a criminal activity of persons authorized to perform state functions (government officials) in connection with the abuse of their powers for bribe purposes.

<b>KORRUPSIONER -</b>	keng ma'noda hokimiyat va xizmat vakolatini shuningdek, jamiyat va davlatning o'ziga bo'lgan ishonchini shaxsiy yoki korporativ manfaatlar uchun suiiste'mol qilgan shaxsdir.	CORRUPTIONER is a person who abuses power and service authority in the broadest sense, as well as the self-confidence of society and the state for personal or corporate interests.
<b>KORRUPSIYa QURBONLARINI VIKTILMOLOGIK HIMOYaLASH -</b>	bu fuqarolar, ijtimoiy jamoalar hamda davlat va nodavlat tuzilmalar tomonidan korrupsiya xatti-harakatlari yoki kasbiy zaiflik qurbanbi bo'lishga moyil bo'lgan aholi toifalari zaifligini kamaytirish (bartaraf etish) maqsadida, qo'llaniladigan choralar.	VICTIMOLOGICAL PROTECTION OF VICTIMS OF CORRUPTION is a measure taken by citizens, social communities and governmental and non-governmental organizations to reduce (eliminate) the vulnerability of the population prone to corruption or occupational vulnerability.
<b>KORRUPSIYa BILAN BOG'LIQ HUQUQBUZARLIK -</b>	ijtimoiy salbiy hodisa bo'lgan korrupsiya xatti-harakatlarini sodir etishga sabab bo'ladigan holatlar (omillar) yoki muayyan korrupsiyaviy xatti-harakatlarni sodir etilishi, mavjudligi, ularni tarqalishi uchun qulay shartsharoitlar yaratadigan huquqbazarliklar.	CORRUPTION OFFENSES - circumstances (factors) that lead to the commission of corruption, which is a socially negative phenomenon, or offenses that create favorable conditions for the occurrence, existence and spread of certain corrupt practices.
<b>KORRUPSIYa BITIMI</b>	- amalga oshirishga doir bir martalik noqonuniy kelishuv.	CORRUPTION TREATY is a one-time illegal agreement on implementation.
<b>KORRUPSIYa VA UNGA QARShI KURASH HOLATI HAQIDA HISOBOT</b>	- vakolatli organ tomonidan jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashish holati, korrupsiya huquqbazarliklari soni, ularning	REPORT ON THE STATE OF FIGHTING CORRUPTION AND FIGHT AGAINST IT

<b>(MA’RUZA)</b>	turlari, huquqbazarlik oqibatida yetkazilgan zararning miqdori va korrupsiyaga qarshi kurash siyosati natijalari to‘g‘risidagi ma’lumotlar hamda korrupsiyaga qarshi kurashish chora-tadbirlari belgilangan hujjat. Ushbu hujjat ommaviy maqomga ega bo‘lib, u davriy nashrlarda chop etilishi kerak.	(REPORT) - information on the state of the fight against corruption in society, the number of corruption offenses, their types, the amount of damage caused by the offense and anti-corruption policy . This document has a public status and should be published in periodicals.
<b>KORRUPSIYa VIKTMLIGI -</b>	jismoniy yoki yuridik shaxsning moyilligi yoki qobiliyati tufayli muayyan xususiyatlari (sifatlar, fazilatlar yoki kamchiliklar) ta’sirida korrupsiya harakati (jinoyati yoki huquqbazarligi) ning bevosita yoki bilvosita qurban ni bo‘lishi.	CORRUPTION VICTIMITY is the direct or indirect victim of an act of corruption (crime or offense) under the influence of certain characteristics (qualities, qualities or shortcomings) due to the inclinations or abilities of an individual or legal entity.
<b>KORRUPSIYa DARAJASI INDEKSI (CORRUPTION PERCEPTIONS INDEX, CPI) -</b>	Korrupsiyaga qarshi Xalqaro jamoat tashkiloti (Transparency International (TI) – The Global Anti-Corruption Coalition) tomonidan turli mamlakatlardagi korrupsiya holati darajasini taqqoslash asosida baholash uchun ishlab chiqilgan integral ko‘rsatkich.	CORRUPTION PERCEPTIONS INDEX (CPI) is an integrated indicator developed by Transparency International (TI) to compare the level of corruption in different countries.
<b>KORRUPSIYa JINOYATI</b>	- davlat va jamoat tashkiloti mansabдор xodimi, hokimiyat vakili yoki davlat nomidan funksiyalar bajarishga vakolatlari bo‘lgan boshqa shaxslarning o‘z imkoniyat va maqomidan shaxsiy manfaatlari uchun turli usullardan noqonuniy foydalanib sodir etilgan jinoyat.	THE CRIME OF CORRUPTION is a crime committed by an official of a state or public organization, a representative of the authorities or other persons authorized to perform functions on behalf of the state, using

		various means for personal gain.
<b>KORRUPSIYa JINOYaTI DETERMINANTLARI</b>	- korrupsiyada jinoyatchilikni keltirib chiqaradigan, uning mavjudligini, takrorlanishini va jamiyatda taqsimlanishini aniqlovchi o‘ziga xos omillar (shartlar).	DETERMINANTS OF THE CRIME OF CORRUPTION - specific factors (conditions) that cause crime in corruption, determine its existence, recurrence and distribution in society.
<b>KORRUPSIYa JINOYaTI YoKI TURINING KRIMINOLOGIK TAVSIFI</b>	- korrupsiyaga oid jinoyatchilikning salbiy oqibatlari, miqdor va sifat ko‘rsatkichlarini ifodalaydigan uning sababi, ushbu jinoyatning (yoki uning turini) jamiyatga nisbatan ta’sirchanligi va unga qarshi kurashish choralar kriminologik tavsifi va tushuntirishidir	CRIMINOLOGICAL DESCRIPTION OF THE CRIME OF CORRUPTION OR TYPE - Criminological description and explanation of the negative consequences of the crime of corruption, its cause, which reflects the quantitative and qualitative indicators, the impact of this crime (or its type) on society and measures to combat it
<b>KORRUPSIYa JINOYaTI TAHLILI</b>	- jamiyatdagi korrupsiya holatini baholash va bilishni umumiyligini anglatadigan tushuncha. Tahlil jarayonida tadqiqotchi korupsiyaga oid jinoyatlar bo‘yicha sifatli va aniq ma’lumotlar asosida korupsiya holatlari, dinamikasi, kelib chiqish sabablari, o‘zgarishlarini o‘rganadi. Tahlillar natijasini baholash maqsadida o‘rganilayotgan hodisa haqida oldingi bilimlar bilan yangi axborotlar holatini taqqoslash natijasida xulosa qilinadi.	CORRUPTION CRIMINAL CRIME CRIME ANALYSIS is a concept that refers to the generality of assessing and knowing the state of corruption in a society. In the process of analysis, the researcher studies the cases, dynamics, causes and changes of corruption on the basis of qualitative and accurate data on corruption crimes. In order to evaluate the results of the analysis, a conclusion is drawn by

		comparing the state of new information with previous knowledge about the phenomenon under study.
<b>KORRUPSIYa JINOYaTI ShAXSI</b>	- ijtimoiy faoliyat jarayonida shakllangan va ijtimoiy ahamiyatga ega xususiyatlari majmuini qonun bilan taqiqlangan vosita hamda usullardan shaxsiy maqsadlarga erishish uchun foydalanishni ko‘zlaydigan shaxs.	A PERSON OF THE CRIME OF CORRUPTION is a person formed in the course of social activity and intends to use a set of socially significant features to achieve personal goals by means and methods prohibited by law.
<b>KORRUPSIYa JINOYaTI ShAXSI -</b>	ijtimoiy faoliyat jarayonida shakllangan va ijtimoiy ahamiyatga ega xususiyatlari majmuini qonun bilan taqiqlangan vosita hamda usullardan shaxsiy maqsadlarga erishish uchun foydalanishni ko‘zlaydigan shaxs.	A PERSON OF THE CRIME OF CORRUPTION is a person formed in the course of social activity and intends to use a set of socially significant features to achieve personal goals by means and methods prohibited by law.
<b>KORRUPSIYa JINOYaTI ShAXSINING IJTIMOIY XAVFI</b>	- korrupsiya jinoyatining tabiat, og‘irligi hamda uni amalga oshirishga mukammal tayyorgarlik ko‘rishda namoyon bo‘ladigan korrupsiya jinoyati shaxsining asosiy xususiyatlaridan biri.	SOCIAL DANGER OF THE PERSON OF THE CRIME OF CORRUPTION - one of the main features of the personality of the crime of corruption, which is manifested in the nature, gravity of the crime of corruption and thorough preparation for its commission.
<b>KORRUPSIYa JINOYaTI QURBONI</b>	- korrupsiya jinoyati oqibatida mulkiy (moddiy) yoki ma’naviy zarar ko‘rgan jismoniy yoki	VICTIM OF CORRUPTION CRIME - a natural or legal person

	yuridik shaxs.	who has suffered property (material) or moral damage as a result of the crime of corruption.
<b>KORRUPSIYa JINOYATI HAJMI</b>	- muayyan hududda (davlat, viloyat, shahar) yoki muayyan davlat tizimlarida (vazirlik, idora va h.k.) vakolatli huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan muayyan davr oralig‘ida ruyxatga olingan korrupsiya jinoyatlari mutlaq miqdori.	SCOPE OF CORRUPTION CRIME - the absolute amount of corruption crimes registered by the competent law enforcement agencies in a certain area (state, province, city) or in certain state systems (ministries, departments, etc.) over a period of time
<b>KORRUPSIYa JINOYATIGA QARShI KURASHISH</b>	- jamiyat va davlatning doimiy ravishda korrupsiyani oldini olish va tugatishga qaratilgan maqsadli, ko‘p bosqichli tizimli faoliyati.	THE FIGHT AGAINST THE CRIME OF CORRUPTION is a purposeful, multi-level systematic activity of society and the state aimed at preventing and eliminating corruption on a regular basis.
<b>KORRUPSIYa JINOYATINI OLDINI OLİShNING UMUMIJTIMOIY TIZIMI</b>	- korrupsiya jinoyatlarini keltirib chiqarishda aholi yoki uning alohida guruhlariga iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va boshqa mezonlar bo‘yicha ta’sir qiluvchi sabablarni aniqlashga oid davlat, davlatlararo darajadagi korrupsiya holatlarini bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlar.	GENERAL SYSTEM OF PREVENTION OF CRIME OF CORRUPTION - measures aimed at eliminating cases of corruption at the state, interstate level to identify the causes that affect the population or its individual groups on economic, social, political and other criteria in the commission of corruption crimes.
<b>KORRUPSIYa JINOYATINI</b>	korrupsiya jinoyati yoki korupsiyaviy jinoyatlar	CONCEALMENT OF CRIME OF

<b>YaShIRISH -</b>	turkumini turli ob'ektiv va sub'ektiv sabablar bilan ro'yxatga olishni yashirish natijasida korrupsiya jinoyati sodir etgan shaxslarni jinoiy javobgarlikka tortilmasligi.	CORRUPTION - non-prosecution of persons who have committed a crime of corruption as a result of concealment of the registration of a crime of corruption or a series of corruption crimes for various objective and subjective reasons.
<b>KORRUPSIYa JINOYaTINING IJTIMOIY XAVFI</b>	- korrupsiya jinoyatining ijtimoiy xavfi ijtimoiy boshqaruv tizimiga hokimiyatni obro'sizlantirish orqali muhim moddiy va ma'naviy zarar yetkazishi bilan xarakterlanadi.	SOCIAL RISK OF THE CRIME OF CORRUPTION - the social risk of the crime of corruption is characterized by significant material and moral damage to the system of social governance by discrediting the government.
<b>KORRUPSIYa JINOYaTLARI DINAMIKASI</b>	- ma'lum bir vaqt oralig'idagi (tahlil davridagi) korrupsiya jinoyatlari miqdoriy o'zgarishlarini uning kriminologik xususiyatlarini inobatga olgan holda tavsiflash. Kriminologlar tomonidan ushbu ko'rsatkich ko'pincha korrupsiya jinoyatlarining barcha jihatlaridagi (holati, tarkibi) miqdoriy o'zgarishlarni ifodalash va uni tavsiflashda foydalilanadi.	DYNAMICS OF CORRUPTION CRIMES - a description of the quantitative changes in corruption crimes over a period of time (analysis period), taking into account its criminological features. By criminologists, this indicator is often used to quantify and describe quantitative changes in all aspects (status, composition) of corruption crimes.

## **VI. ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

### **I. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari**

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.
2. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 592 b.
3. Mirziyoev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oly bahodir. 2-jild. T.: “O‘zbekiston”, 2018. – 507 b.
4. Mirziyoev Sh.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. 3-jild.– T.: “O‘zbekiston”, 2019. – 400 b.
5. Mirziyoev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild.– T.: “O‘zbekiston”, 2020. – 400 b.

### **II. Normativ-huquqiy hujjatlar**

6. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2018.
7. O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-sonli Qonuni.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 10 dekabrdagi “Chet tillarni o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-1875-sonli qarori.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 12 iyun “Oliy ta’lim muasasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-4732-sonli Farmoni.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevral “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi 4947-sonli Farmoni.
11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 aprel "Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-sonli qarori.
12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 sentabr “2019-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovasion rivojlantirish strategiyasini

tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5544-sonli Farmoni.

13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 may “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5729-son Farmoni.

14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 17 iyun “2019-2023 yillarda Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetida talab yuqori bo‘lgan malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatini rivojlantiri chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4358-sonli Qarori.

15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 avgust “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzlucksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-sonli Farmoni.

16. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabr “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmoni.

17. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentabr “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-sonli qarori.

### **Sh. Maxsus adabiyotlar**

18. Fuqarolik jamiyati. Darslik loyixasi – T.: 2016. Ziyonet.uz Mualliflar jamoasi.
19. Xakimov N.X., Sadikov A.K. Strategiya razvitiya strani. Grajdanskoe ob estvo (Uchebnoe posobie) - T.: “Iqtisodiyot”, 2020. - 252 s.
20. O‘tamurodov A. va boshq. Fuqarolik jamiyati: G‘oyalar evolyusiyasi (Sharq va G‘arb mutafakkirlari talqinida). Lotin yozuvida. – T.: “Adabiyot uchqunlari”, 2018. – 96 b.
21. O‘tamurodov A. va boshq. Fuqarolik jamiyati fanidan tushuncha va atamalar lug‘ati. Lotin yozuvida. – T.: “Turon-Zamin-Ziyo”. 2017. 23 b.t.
22. O‘tamurodov A. va boshq. Fuqarolik jamiyati (O‘quv qo‘llanma) – T.: “Universitet”, 2018. 21 b.t.

23. Uil Kimlika Sovremennaya politicheskaya filosofiya. Vvedenie. – M.: “Vissaya shkola ekonomiki”, 2013. – 585 s.
24. Usmonov B.Sh., Habibullaev R.A. Oliy o‘quv yurtlarida o‘quv jarayonini kredit-modul tizimida tashkil qilish.–T.: “TKTI” nashriyoti, 2019.
25. Trudnim putjom demokratii: Protsess gosudarstvennogo upravleniya v SShA (Perevod s ang. A.N.Kulik). – M.: “ROSSPEN”, 2006. – 656 s.
26. U.Bo‘taev Jamiyat barqarorligi: O‘zbekiston tajribasi. – T.: “Fan va texnologiyalar”, 2017. 11.9 b.t.

#### **IV. Internet saytlar**

27. <http://edu.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi.
28. <http://lex.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujatlari ma’lumotlari milliy bazasi.
29. <http://bimm.uz> – Oliy ta’lim tizimi pedagog va rahbar kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish bosh ilmiy-metodik markazi.
30. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz) – Ta’lim portali.